

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI
TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

“MARKSHEYDERLIK ISHI”
yo‘nalishi

“KONCHILIK HUQUQI ASOSLARI”
moduli bo‘yicha

O‘QUV-USLUBIY MAJMUА

Mazkur o‘quv-uclubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrdagi 538-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dastur asosida tayyorlandi

Tuzuvchi: t.f.n., prof. Sayyidqosimov S.S

Taqrizchi: t.f.n. dotsent I.Inogamov

O‘quv-uclubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2021-yil 29-dekabrdagi 4-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, foydalanishga tavsiya etildi.

MUNDARIJA

| | |
|--|-----------|
| I. ISHCHI DASTUR | 4 |
| II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI..... | 10 |
| III. NAZARIY MATERIALLAR..... | 15 |
| IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI..... | 48 |
| V. GLOSSARIY | 68 |
| VI. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR | 72 |

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, er qa’ridan foydalanishdagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish usuli, konchilik xuquqini o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari. konchilik munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solishning umumiy masalalari va er qaridan foydalanish uchun to‘lovlarni huquqiy tartibga solishbo‘yicha rivojlangan xorij davlatlarining tajribalari.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning **maqsadi – Marksheyderlik ishi** yunalishi buyicha tinglovchilarga marksheyderlik ishida qo‘llanilayotgan zamonaviy o‘qitish metodikasi, kon geometriyasi va kvalimetriyasi bilan tanishtirish hamda ularning imkoniyatlari kamchilik va yutuqlarini yoritishdan iborat.

Modulning **vazifasi** – Marksheyderlik ishi yunalishi fanlarini o‘qitishda zamonaviy o‘qitish metodlaridan va innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilish va bu borada bilimlarini takomillashtirish iborat.

Modul bo‘yicha bilimlar, ko‘nikmalar, malakalarga qo‘yiladigan davlat talablari.

Kutilayotgan natijalar: Marksheyderlik ishi yo‘nalishi “Konchilik huquqi asoslari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar:

Tinglovchi:

- er qa’ridan oqilona foydalanish hak-huquqlarini;
- er qa’ridan oqilona foydalanishda talabgorning huquqlari va litsenziyalarini;
- er qa’ridan oqilona va kompleks foydalanishda, uni qo‘riqlashda qo‘yiladigan talablarni;
- er qa’ridan oqilona va kompleks foydalanishda xavfsizlik choralarini;
- er qa’ridan oqilona foydalanishda mavjud asosiy to‘lov turlarini;
- er qa’ridan oqilona foydalanish davomida mavjud koidalarni buzilganlik holatlarida joriy etilgan jazo turlari haqidagi **bilimlarga ega bo‘lishi lozim.**

Tinglovchi:

- "Konchilik huquqi" modulining er ka’ri resurslaridan foydalanish va er osti boyliklarini muhofazalashga oid munosabatlarni huquqiy boshqarish;
- er osti boyliklarini kazib olish huquqini litsenziyalash davlat tizimini tahlil qilish;
- er osti boyliklaridan foydalanuvchilarning asosiy huquq va majburiyatlaridan foydalanish;
- er osti boyliklardan okilona foydalanish va muxofaza qilish, ulardan foydalanish bilan bog‘lik bo‘lgan ishlarni bexatar olib borishga qo‘yilgan asosiy talablarni tahlil qilish;
- er osti boyliklaridan foydalanish turlari va to‘lov usullaridan foydalanish **ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.**

Tinglovchi:

- er osti boyliklaridan foydalanuvchilarning asosiy huquq va majburiyatları;
- er osti boyliklardan okilona foydalanish va muxofaza kilish, ulardan foydalanish bilan bog‘lik bo‘lgan ishlarni bexatar olib borishga qo‘yilgan asosiy talablar bo‘yicha **malakalariga ega buladilar.**

Tinglovchi:

- Konni ishlatalishning kon-texnikaviy, hidrogeologik, ekologik, va boshqa shart-sharoitlari, konning geologik- iqdisodiy baholanganligin tahlil qilish.
- **kompetsiyalarga** ega bo‘lishi lozim.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog‘likligi va uzviyliги

“Konchili huquqi asoslari” moduli o‘quv rejadagi “Marksheyderlik axborot texnologiyalari” va “Elektron-optik va navigatsion marksheyderlik asboblar” boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lik. Bu o‘quv rejadagi mavzular yuqorida qayd etilgan fanlarning mantiqiy davomi bo‘lib, boshqa mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirish uchun zarur xisoblanadi.

Modulning oliy ta’limdagи o‘rnи

Respublikadagi ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni samaradorligini, pedagog – kadrlarning axborot texnologiyalari va mutaxassis fanlarni yanada yaxshi o‘zlashtirish Konchilik ishi soxasida ta’lim berayotgan, malaka oshirayotgan professor o‘qituvchilar makalasini mustaxkamlashga karatilgan.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:

| № | Modul mavzulari | Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat | | | |
|----|--|--------------------------------------|----------|-------------------|--------------------|
| | | jamı | Nazay | Amaliy mashg‘ulot | Ko‘chma mashg‘ulot |
| 1. | Er qa’ridan foydalanishdagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish usuli | 8 | 2 | 2 | 4 |
| 2. | Konchilik xuquqini o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari | 4 | 2 | 2 | |
| 3. | Konchilik munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solishning umumiy masalalari | 4 | 2 | 2 | |
| 4. | Er qaridan foydalanish uchun to‘lovlarni huquqiy tartibga solish | 2 | | 2 | |
| | Jami: | 18 | 8 | 8 | 4 |

NAZARIY TA'LIM MAZMUNI

1–mavzu: Er qa'ridan foydalanishdagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish usuli.

Er qa'ridan foydalanishdagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish usuli Er osti boyliklaridan foydalanishdagi munosabatlarni tartiblash tamoillari. Konchilik huquqi manbalari. Huquq tarmog‘ining nomlanishi.

2 – mavzu: Konchilik xuquqini o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari.

Konchilik xuquqini o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari. Davlat huquqi. Mamuriy huquq. Moliyaviy huquq. Fuqorolik huquqi. Jinoiy xuquq. Er xuquqi. Ekologik xuquq. Xalqoro huquq. Konchilik huquqining fan sifatidagi o‘rni. Er osti boyliklaridan foydalanish munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish.

3- mavzu: Konchilik munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solishning umumiy masalalari.

Bozor iktisodiyoti sharoitida davlat tomonidan tartibga solish. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining konchilik munosabatlari sohasidagi vakolatlari. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining konchilik munosabatlari soxasidagi vakolatlari. Sanoatda va konchilikda ishlarni bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligining vakolatlari.

AMALIY MASHG‘ULOT MAVZULARI

1–amaliy mashg‘ulot: Er qa'ridan foydalanish turlari.

Er qa'ridan foydalanish bu uning resurslarini topish, foydalanish, tiklash va muhofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lgan inson faoliyatining turi bilan tanishish.

2– amaliy mashg‘ulot: O‘zbekiston Respublikasi metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish to‘g‘risidagi qonunlarining er qa'ridan foydalanish va uni muhofazalashga doir bandlarini o‘rganish.

O‘zbekiston Respublikasi metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish to‘g‘risidagi qonunlarining er qa'ridan foydalanish va uni muhofazalashga doir bandlarini o‘rganish.

3– amaliy mashg‘ulot: O‘zbekiston Respublikasida er qa’ridan foydalanish munosabatlarini qonuniy tartibga solinishiga oid talab va qoidalarini o‘rganish.

O‘zbekiston Respublikasida er qa’ridan foydalanish munosabatlarini qonuniy tartibga solinishiga oid talab va qoidalarini o‘rganish.

4 amaliy mashg‘ulot: Er osti boyliklarini qazib olish va qayta ishlash jarayonlarining atrof-muhitga ekologik salbiy ta’sirining ekologik-huquqiy normalarini o‘rganish.

Er osti boyliklarini qazib olish va qayta ishlash jarayonlarining atrof-muhitga ekologik salbiy ta’sirining ekologik-huquqiy normalarini o‘rganish

KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI Mavzu:Er qa’ridan foydalanishdagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish usuli

Ko‘chma mashg‘ulotlarni «OKMK » AJ tashkilotiga olib borilishi ko‘zda tutilgan.

TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLLARI

Ta’limni tashkil etish shakllari aniq o‘quv materiali mazmuni ustida ishlayotganda o‘qituvchini tinglovchilar bilan o‘zaro harakatini tartiblashtirishni, yo‘lga qo‘yishni, tizimga keltirishni nazarda tutadi.

Modulni o‘qitish jarayonida quyidagi ta’limning tashkil etish shakllaridan foydalilanadi:

- ma’ruza;
- amaliy mashg‘ulot.

O‘quv ishini tashkil etish usuliga ko‘ra:

- jamoaviy;
- guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);
- yakka tartibda.

Jamoaviy ishlash – Bunda o‘qituvchi guruhlarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o‘quv maqsadiga erishish uchun o‘zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

Guruhlarda ishlash – bu o‘quv topshirig‘ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o‘quv jarayonida kichik guruxlarda ishlashda (3 tadan – 7 tagacha ishtiroychi) faol rol o‘ynaydigan ishtiroychilarga qaratilgan ta’limni tashkil etish

shaklidir. O‘qitish metodiga ko‘ra guruhni kichik guruhlarga, juftliklarga va guruhlarora shaklga bo‘lish mumkin.

Bir turdagи guruhli ish o‘quv guruhlari uchun bir turdagи topshiriq bajarishni nazarda tutadi.

Tabaqalashgan guruhli ish guruhlarda turli topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.
YAkka tartibdagi shaklda - har bir ta’lim oluvchiga alohida- alohida mustaqil vazifalar beriladi, vazifaning bajarilishi nazorat qilinadi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM

METODLARI


“Venn diagramma” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birqalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yoxud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Insoniyatning Er osti boyliklarini zabit etish yo‘lidagi faoliyati



“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» – inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

| Ish bosqichlari | Faoliyat shakli va mazmuni |
|--|--|
| 1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish | <ul style="list-style-type: none">✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);✓ axborotni umumlashtirish;✓ axborot tahlili;✓ muammolarni aniqlash |

| | |
|---|---|
| 2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash | ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash |
| 3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining echimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish | ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir echimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash |
| 4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot. | ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish |

Keys. Ichki yonuv dvigatellari uchun qo‘llanila boshlangan ba’zi alternativ yonilg‘ilar motor o‘t olishi va alanganing tarqalishiga salbiy ta’sir qilmoqda hamda zararli moddalar va zarrachalar chiqishini ko‘paytirmoqda.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Zararli moddalar va zarrachalar ajralib chiqishini kamaytirish tadbirleri variantlarini muhokama qiling (juftliklardagi ish).

“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab

o‘rganish talab etiladi. SHundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlар o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. SHundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridaн pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridaн pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

| Guruh bahosi | Guruh xatosi | To‘g‘ri javob | YAKKA xATO | YAKKA baho | Ta’minlash tizimining |
|--------------|--------------|---------------|------------|------------|--|
| | | 6 | | | O‘zbekiston Respublikasi metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish to‘g‘risidagi qonunlarining er qa’ridan foydalanish va uni muhofazalash |

| | | | | | |
|--|--|---|--|--|--|
| | | 5 | | | O‘zbekiston Respublikasida er qa’ridan foydalanish munosabatlarini qonuniy tartibga solinishiga oid talab va qoidalarini o‘rganish |
| | | 3 | | | Er osti boyliklarini qazib olish va qayta ishlash jarayonlarining atrof-muhitga ekologik salbiy ta’sirining ekologik-huquqiy normalarini o‘rganish |
| | | 1 | | | Er qaridan foydalanish bilan bog‘liq ishlar bexatar olib borilishini ta’minlash. Er qa’ridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish |
| | | 2 | | | Er qa’ridan foydalanishdagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish usuli |
| | | 4 | | | Konchilik xuquqini o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari |

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-maruza: Er qa'ridan foydalanishdagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish usuli.

Reja:

1. Er osti boyliklaridan foydalanishdagi munosabatlarni tartiblash tamoyillari.
2. Konchilik huquqi manbalari.
3. Huquq tarmog‘ining nomlanishi.

Tayanch so‘z va iboralar: Konchilik huquqi, tobelik tamoyili, bo‘lishishlik tamoyili, tengliklik tamoyili, er osti boyliklari.

1.1. Er osti boyliklaridan foydalanishdagi munosabatlarni tartiblash tamoyillari.

Jamiyatdagi huquqiy munosabatlarni tartibga keltirish muammosi borligi hanuzgacha tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda. Er osti boyliklaridan foydalanishni huquqiy tartiblashga kelsak huquqning mustaqil sohasi doirasida butunlay ko‘rilmagan. SHunday usulni alohida amaliyotda qo‘llashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. CHunki er osti boyligidan foydalanishdagi zamonaviy munosabatlarni tartiblash usuli bir tomondan, er osti boyligining foydali xossalariini o‘zlashtirish jarayonida tadbirkorlikning faoliyati subektiga kutilgan iqdisodiy natijaga erishishni taminlash sharti bo‘lsa, ikkinchidan, foydalanish uchun berilgan er osti boyligi uchastkasi yoki Davlat er osti boyligi jamg‘armasining egasi bo‘lmish Davlat o‘z manfaati himoyasini taminlashi kerak. Bundan tashqari tartiblash usuli inson faoliyatining tirikchilik bazasi (bo‘lgan) va bir vaqtning o‘zida tabiiy resurs hisoblangan Er osti boyligining hususiyatini inobatga olishligi maqsadga muvafiq bo‘ladi. Er osti boyligidan foydalanishdagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning mazmunini aniqlash va uni tasniflashda quydagi (talablarni) sharoitlarni inoabtga olish kerak bo‘ladi:

- Usul huquqiy tartiblanishning predmeti, tabiatи va tavsifiga mos bo‘lishi shart;

- Usul mazkur tarmoqning huqqiy manbalari oldida turgan masalalalarni echishga ko‘maklashishi zarur.

Er osti boyliklaridan foydalanishdagi munosabatlarni tartiblash usuli quydagি tamoyillarga asoslangan:

- Tobelik, bo‘lishishlik, tenglik, kelishishlik, cheklashlik

Tobelik tamoyili – bu er osti boyligini Davlat mulki sifatidagi munosabatlarni tartibga keltirish uchun qo‘llaniladi va asosan, Er osti boyligi Davlat jamg‘armasiga egalik qilish, foydalanish va boshqarish bilan bog‘liq. Davlat birinchidan ushbu tamoyilni huquqiy meyorlarda qo‘llash orqali er osti boyligi jamg‘armasini boshqarish tizimi va vakolat doirasini, ikkinchidan, er osti boyligidan foydalanish tartibi, undan foydalanuvchilarning huquqi, majburiyati va masuliyatini belgilab beradi.

Bo‘lishishlik tamoyili – Davlat mulki hisoblangan er osti boyligining turlarini belgilab olishda qo‘llaniladi:

Davlat huquqiy meyorlarda bo‘lishish tamoyilini qo‘llash orqali quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi:

- Respublika va uning joylaridagi subektlar (viloyat, tuman, Qaroqolpag‘iston Respublikasi) orasida er osti boyligi – Davlat mulkini qaerga qancha tegishliligini belgilab oladi.
- Er osti boyligining alohida qismiga Davlat (O‘zbekiston Respublikasi) ga tegishlik obekt maqomini berish, ularni faqat davlat organlari yoki davlat boshqaruv organlari vakilligi ihtiyyoridagi obektlar qatoriga kiritadi.
- Respublika miqyosida foydali qazilma konlarini zaxira jamg‘armasini tashkil etadi.

Tengliklik tamoyili – er osti boyligidan foydalanish huquqini olish tartibini belgilashda qo‘llaniladi. Davlat er osti boyligidan foydalanishdagi huquqiy meyorlarda bu tamoyilni foydalanuvchi subektlar uchun qonunchilik tartibida konkurs (tanlov) yoki auksion orqali litsenziya olishliklarida teng huquqiy sharoit yaratadi.

Kelishlilik tamoyili – kon ajratmasi yoki er ajratmasining chegaralarini belshilashda qo‘llaniladi. Davlat huquqiy meyorlarda kelishlilik tamoyilini qo‘llash

orgali kon ajratmasining vaqtinchalik va aniqlangan chegaralarini belgilashning kelishishlilik tartibini va konchilik korxonasini qurish va undan foydalanish uchun zarur bo‘lgan er ajratmasi chegaralarini belgilash tartibini o‘rnatadi.

CHeklashlik tamoyili – Er osti boyligidan foydalanuvchilarning majburiyat va masuliyatlarini aniqlashda qo‘llaniladi. Davlat huquqiy meyorlarida bu tamoilni qo‘llash orqali er osti boyligidan oqilona foydalanish va ularni muxofaza qilish hamda bu talablarga rioya qilinganda javobgarlik asoslarini belgilovchi talablarni o‘rnatadi.

Keltirilgan tamoyillar er osti boyliklaridan foydalanishdagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning kompleks usuli asosini tashkil etadi va huquqning boshqa tarmoqlarida qo‘llaniladigan usullardan keskin farq qiladi.

1.2. Konchilik huquqi manbalari

Konchilik huquqi manbaalari – bu meyoriy – huquqiy hujjatlar bo‘lib, er osti boyligidan foydalanishdagi mavjud bo‘lgan barcha talablarni o‘z ichiga oladi. Bu xujjatlar belgilangan tartibda va mazmunda Davlat organlari tamonidan berilgan vakolat doirasida Davlat idoralari tamonidan qabul qilingan. Qonun nazariyasida huquqiy manbalarning bir qator tasniflari mavjud. Konchilik huquqi uchun yuridik kuchga asoslangan konchilik huquqiy manbalari tasnifi muhimroq hisoblanadi.

YUridik maqomi (kuchi) bo‘yicha konchilikning huquqiy manbaalari Qonunlar va qonunosti meyoriy hujjatlarga bo‘linadi.

Masalan “O‘zbekiston Respublikasi Er osti boyliklari to‘g‘risida” gi qonuni va boshqa qonunlar. “ Er osti boyligidan foydalanishni litsenziyalash tartibi haqida” gi Nizom – bular qonun hujjatlari bo‘ladi.

Qonun osti meyoriy xujjatlari – bu qonunlarning ijrosini taminlash maqsadida xukumat va boshqa vakolatli Davlat idorasi tamonidan qabul qilingan hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tamonidan tasdiqlangan (ro‘yxatdan o‘tkazilgan) meyoriy – huquqiy xujjatlardir.

Qonunchilik tarmoqlarining klassifikatorida “Er osti boyligi haqida” gi qonunchilik mustaqil tarmoq sifatida ajratilgan.

Tarmoq klassifikatori quydagi bo‘limlardan iborat:

- Er osti boyligidan foydalanish va uni muxofaza qilishning umumiyligi masalalari.
- Er osti boyliklaridan foydalanish va ularni muxofazasini boshqarish hamda nazorat qilish;
- Ert osti boyliklari Davlat jamg‘armasi, foydali qazilma konlari va ular namayon bo‘lgan joylarning Davlat kadastrini;
- Er osti boyliklari mulkchiligi,
- Er osti boyligidan foydalanish,
- Er osti boyligidan foydalanish turlari, er osti boyliklaridan foydalanuvchilarning asosiy huquq va majburiyatları, er osti boyliklaridan foydalanuvchilar uchun to‘lovlar, Er osti boyligidan foydalanishga o‘tkaziladigan tanlov va auksionlar.
- Er osti boyligi muxofazasi,
- Foydali qazilma konlari zaxirasining Davlat ekspertizasi.
- Er osti boyligi xaqidagi qonunchilikni buzganlik masuliyati.

Demak, Er osti boyligidan foydalanishni huquqiy tartiblashda huquqning mustaqil tarmog‘ini belgilovchi to‘rtta shartning barchasi bajarilganligini klassifikatorda ko‘rish mumkun.

1.3. Huquq tarmog‘ining nomlanishi

Er osti boyligidan foydalanishning jamoaviy munosabatlarini tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan huquq meyorining alohida majmui nomini tanlashda to‘g‘ri talqin apparatini shakllantirishning tarkib topgan amaliyotini qo‘llab, shu nomni tashkil etuvchi unsurlarning optimal brikmasini topish (qo‘llash) zarur bo‘ladi.

Er osti boyligidan foydalanishning barcha turlarida yagona qoida asosida amalga oshiriladigan konchilik ishlari bajaradi. Er osti boyligidan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha munosabotlar qonun bilan tartiblangan taqdirda ham konchilik idoralarining nazoratiga tushadi va nixoyatda “konchilik” atamasi qonunchilik texnologiyasi nuqtai nazaridan qo‘llashga juda ham qulay, chunki qonunchilikga nom berishda ham, shu qonunchilik bilan tartibga solinadigan jamoaviy munosabatlar

guruhini nomlashda ham, bir xil aniqlikda qo‘llanilaveradi. Masalan “Konchilik qonunchilikgi” yoki “Konchilik munosabatlari”. SHuni ham takidlash zarurki:

1) er qaridan foydalanishning bazi bir turlari konchilik ishlari bilan bevosita bog‘liq emas;

2) huquq tarmog‘i va konchilik tarmog‘i bular ikki xil tushuncha bo‘lib, huquq tarmog‘ini nomlaganda “Konchilik” so‘zidan (atamasidan) foydalanish unchalik maqsadga muvofiq bo‘lmaydi.

Malumki, huquq tizimining asosiy unsuri – bu xuquq tarmog‘idir. U aniq turdag'i xilma – xil jamoaviy munosabatlarini tartibga soladi. SHuning uchun ham ert osti boyligidan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarni tartiblovchi meyorlar majmuini huquq tarmog‘i deb nomlashga barcha asos bor. Endi tarmoqning nomlanishiga kelsak bunda ikki xil variant mavjud:

1) – er qaridan foydalanishning huquqiy rejimi.

2) – konchilik huquqi.

Birinchi nom - asl mohiyatni belgilaydi, ikkinchisi esa qulay va sohadagi asosiy munosabatlarni ifodalaydi. SHuning uchun “Er osti boyligi to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida Er qaridan foydalanishdagi va uni muxofaza qilishdagi jamoaviy munosabatlar “konchilik munosabatlari” – atamasi bilan nomlangan.

Takidlardan kelib chiqib, ushbu huquq tarmog‘ini “konchilik huquqi” deb nomlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Demak, konchilik huquqi deganda biz (shartli ravishda) Er qarini o‘rganish, undan foydalanish va uni jamiyatdagi munosabatlarini tartiblovchi, Davlat tamonidan o‘rnatilgan huquqiy meyorni tushunamiz.

Jamiyatni er qari bilan bo‘lgan o‘zoro doirasidagi jamoaviy munosabatlari konchilik huquqi predmetini tashkil etadi. Ushbu munosabatlar Er osti boyligi resurslarini muxofazasi, qayta ishlab chiqarishi, foydalanishiga va o‘rganishiga aloqadar bo‘lgan holda paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Jamiyatda keng qo‘llanilmaydigan malum huquq tarmoqlarining birortasi ham o‘z predmeti sifatida

keltirilgan munosabatlarga o‘xshash munosabatlarni qamrab olmagan va ularni tartibga solishning kerakli uslubi bilan qurollanmagan.

Er osti boyligidan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy munosabatlar subektiga quydagilar kirdi.

- O‘zbekiston xukumati er osti boyligi davlat jamg‘armasidan foydalanish, egalik qilish, boshqarish bilan bog‘liq ishlarni amalga oshiradi.

- Mahalliy xokimiyat idoralari – o‘z vakolatlari doirasida malum miqdorda er osti boyligidan foydalanishni tartiblaydi.

- Tadbirkorlik faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lgan subektlar (mulkchilik shaklidan qatiy nazar), va boshqa davlatlarning fuqorolari er qari va uning resurslari er osti boyligidan foydalanish munosabatlarining obekti hisoblanadi.

Konchilik huquqi tarmog‘ining tarkibini konchilik xuquqining kichik tarmoqlari konchilik huquqi (idoralari) institutlari va konchilik huquqi meyorlari tashkil etadi.

Konchilik huquqining tagtarmoqlari – er osti boyligidan foydalanishning biror bir (konkret muayyan, aniq) turini tartiblovchi, bir – biriga yaqin faoliyat yurituvchi konchilik huquqi institutlari (idoralari) guruhi

Konchilik huquqi tarmog‘i tarkibida quydagi qo‘sishimcha tarmoqlar (mavjud) ajratilgan:

- Er qarini geologik jixatdan o‘rganishda sodir bo‘ladigan jamoaviy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy qo‘sishimcha tarmog‘i.

- Foydali qazilma konlarini qazib olish jarayonida sodir bo‘ladigan jamoaviy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqning qo‘sishimcha tarmog‘i.

- Foydali qazilma konlarini qazib olish bilan bog‘liq bo‘lmasan er osti inshoatlarini qurish va ulardan foydalanish jarayonida sodir bo‘ladigan jamoaviy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqning qo‘sishimcha tarmog‘i.

- Konchilik huquqi institutlari (idoralari) – er osti boyligidan foydalanishdagi munosabatlarning mustaqil qismini tartibga soluvchi huquqiy meyorlar majmui.

- Konchilik huquqi instituti o‘z ichiga quydagilarni oladi: - Er osti boyligiga Davlat mulkchilik maqomini tartibga soluvchi meyorlar guruhi.

- Er osti boyligidan foydalanishdagi munosabatlarni Davlat tamonidan boshqarilishi;

- Er osti boyligidan foydalanishning litsenziyalash tartibi;
- Er osti boyligidan foydalanganlik uchun to‘lovni amalga oshirilishi;
- Er osti boyligidan oqilona foydalanish va uni muxofaza qilinishi.

Konchilik huquqining huquq meyorlari – konchilik huquqining birlamchi unsuri. U umumiy tafsifga ega bo‘lgan majburiy qoidalarni Davlat tamonidan sanksiyalashni (qo‘llash uchun rozilik berishni) tartibga soladi.

Konchilik huquqi meyorlari (normalari) Er osti boyligidan foydalanuvchi subektlarni undan ho‘jalik, madaniyat va fan maqsadlarida foydalanishdagi huquq va majburiyatlarini aniqlab beradi.

Davlat er osti boyligi Davlat jamg‘armasining mulkdori sifatida Konchilik huquqi meyorlari orqali butun davlat miqiyosida er osti boyligidan foydalanishning qoidalarni belgilab beradi va natijada jamiyatning bugungi va ertangi avlodlarining manfaatlarini inobatga olgan holda er osti boyligidan to‘liq va kompleks foydalanishni taminlaydi.

Huquq meyorlarini bazi bir hollarda bajarish uchun Davlat majbur etish tamoilidan foydalanadi. Huquq meyorlarini buzganlik uchun Davlatning vakalotli organlari tamonidan buzg‘unchiliklardi nisbatan yuridik talablarni (jazo) qo‘llash ko‘zda tutilgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasini “Er osti boyliklari to‘g‘risida” gi qonunida (52 – modda) ushbu qonunni buzgan shaxslarga nisbatan jinoiy yoki mamuriy jazo qo‘llash ko‘zda tutilgan.

Nazorat savollari

1. Insoniyatning er osti boyliklarini egallah bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatining asosiy me’zonlari nimalar?
2. Konchilik huquqi qaysi huquq tarmoqlari bilan o‘zoro munosabati shakllangan?
3. Er osti boyliklari to‘g‘risidagi qonunning 14– moddasida nima deyilgan?
4. Konchilik huquqi manbalarini sanab bering?

5. Er osti boyliklaridan foydalanishdagi munosabatlarni tartiblash tamoyillari.
6. Konchilik huquqi manbalari nimalardan iborat?

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya. Rasmiy nashr.
2. O‘zbekiston Respublikasi «Er osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonun. 2002.
3. Pevzner M.E. Gornoe pravo.- M.: MGGU, 2002.
4. Raximov V.R., SHerfedinov L.Z. Gornoe pravo (Pravovoy poryadok nedropolzovaniya). Tashkent: TGTU, 2007.
5. Raximov V.R., Sayyidqosimov S.S. Konchilik huquqi, o‘quv qo‘llanma (El.v.), TashDTU, 2007 y.

2-maruza: Konchilik xuquqini o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari.

Reja:

1. Konchilik huquqning boshqa huquq tarmoqlari bilan o‘zoro munosabati.
2. Konchilik huquqining fan sifatidagi o‘rni.
3. Er osti boyliklaridan foydalanish munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish.

Tayanch so‘z va iboralar: Davlat huquqi, konchilik huquqi, moliyaviy huquq jinoiy xuquq, er xuquqi, fuqorolik huquqi, ekologik xuquq, halqoro huquq

2.1. Konchilik huquqning boshqa huquq tarmoqlari bilan o‘zoro munosabati.

Konchilik huquqi asosan 3 yo‘nalishda o‘rganiladi:

1) tarmoq huquqi sifatida; 2) fan sifatida; 3) o‘quv predmeti sifatida. Konchilik huquqini huquq tarmog‘i sifatida o‘rganishda asosiy etibor er osti boyliklari haqidagi qonunchilikka, uning huquqiy institutlarini rivojlanishiga, huquqiy meyorlarning takomillashtirishga va huquqning boshqa tarmoqlariga qaratiladi.

Mutaxassislarning takidlashlaricha huquq tizimi – bu murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamiyat hayotining qonuniyatlarini meyoriy shaklda mustahkamlaydi va tasvirlaydi.



1 – chizma. Konchilik huquqning boshqa huquq tarmoqlari bilan o‘zaro munosabati.

Huquq tizimi doimiy rivojlanib borishiga qaramay, davlatchilikda amal qilinayotgan huquqiy meyorlarning yagonaligi va muvofiqligini saqlab qoladi. Konchilik huquqi huquqning yangi tarmog‘i bo‘lsada, u boshqa huquq tarmoqlari bilan o‘zaro munosabatda va ular bilan birga o‘zaro xarakatda bo‘ladi. (3.1-chizma). Konchilik huquqida boshqa tarmoq huquqlarining meyorlari ham o‘ziga xosligini saqlab qolgan holda qo‘llaniladi. Huquqshunoslikad bu masalalar ham chuqr o‘rganilganligi sababli ularga batafsил to‘xtalamiz.

Davlat huquqi – huquqning bu tarmog‘i mamlakatda davlat va jamiyat tuzumi va qurilishi asoslarining mustahkamlovchi, fuqorolarning asosiy xuquqi, majburiyati va erkinligini taminlovchi, davlat hokimiyati va mahalliy hokimiyatlar idoralarini tashkil etish va vakolatlarni belgilovchi meyorlarni birlashtiradi.

Konchilik huquqi davlat huquqi meyorlaridan er osti boyliklaridan foydalanishdagi munosabotlarni tartibga solish doirasida davlat idoralari bilan mahalliy hokimiyatlar o‘rtasidagi vakolatlarni belgilab (ajratib) olishda foydalaniladi.

Mamuriy huquq - Huquqning bu tarmog‘i davlat boshqaruvidagi, birinchi navbatda, hukumatning faoliyatidagi va uning ijroiya organlari va obektlari faoliyatidagi, shuning bilan birga mamuriy javobgarlikni balgilashdagi munosabatlarni tartibga soladi.

Konchilik huquqi mamuriy huquq meyorlaridan quydagi holatlarda:

- Er osti boyligidan foydalanishdagi munosabatlarni tartibga solishda mahalliy hokimiyat idoralarining tarkibi, vazifasi, huquqi va majburiyatlarini aniqlashda foydalanadi;
- Er osti boyligi haqidagi qonunchilikni buzganda javobgarlikni belgilashda foydalanadi;
- Er osti boyliklaridan foydalanganda antimonopoliyaga oid talabalarni ishlab chiqish va amalda ijro qilishda foydalanadi.

Moliyaviy huquq - Huquqning bu tarmog‘i moliyaviy faoliyat doirasida jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqlar majmuasini taqdim etadi.

Alovida huquqiy meyorlar kompleksi (huquqiy institut) yordamida majburiy to‘lov va soliqlar hamda ularni undirish tartibini o‘rnatish moliyaviy huquqning muhum qismi hisoblanadi. Konchilik huquqi moliyaviy huquq meyorlaridan er osti boyligidan foydalanilgani uchun to‘lovlanri undirishni taminlashda foydalanadi.

Fuqorolik huquqi - Huquqning bu tarmog‘i tamonlarning yuridik tengligi asosida har xil mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Malumki er osti boyligidan foydalanishning turlaridan biri bu foydali qazilmalarni qazib olish bilan bog‘liq bo‘lmagan er osti inshoatlarini qurish va ulardan foydalanish

hisoblanadi. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu inshoatlarni o‘rnidan qo‘zg‘atishni ilojisi yo‘q. (fuqarolik kodeksi , 1 qism) va ularning foydali xossalari er osti fazosida joylashganligi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiniig (49-moddasiga) binoan yuridik shaxs faoliyatining alohida turi bilan faqatgina litsenziya asosida shug‘ullanish mumkin. SHundan kelib chiqib, takidlash mumkinki, konchilik xuquqi fuqarolik xuquqi meyorlaridan er osti boyliklaridan foydalanish xuquqini beruvchi litsenziyani olish va qayta rasmiylashtirishni tartibga solishda foydalanadi. Fuqarolik xuquqi meyorlari “Mahsulotlarni taqsimlashni kelishish haqi” dagi “Er osti boyliklari to‘g‘risida” gi qonunlarda ham o‘z ifodasini topgan. Jumladan, er osti boyligidan foydalanganda etkazilgan zararni qoplashga bag‘ishlangan “Er osti boyligi to‘g‘risida” gi qonun bandida bu haqda ko‘rsatib o‘tilgan.

Jinoiy xuquq - Xuquqning bu tarmog‘i jamiyat uchun havfli bo‘lgan harakatlar doirasini belgilab beruvchi meyorlar to‘plami (kompleksi) dan iborat bo‘lib, ular yordamida sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo turi va muddati belgilanadi, agarda mazkur havfli xarakat jinoyat deb baholansa, yoki jinoyat javobgarligidan ozod etiladi, agar u jinoiy harakat bo‘lmasa.

Konchilik xuquqi jinoiy xuquq meyorlaridan “Er osti boyliklari to‘g‘risida” gi qonunni buzganligi uchun jinoiy javobgarlikni tartibga solishda foydalanadi.

Er xuquqi - Xuquqning bu tarmog‘i davlat mulki yoki xususiy shaxs egaligidagi er resurslarini boshqarish, foydalanish va ularni muxofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarni tartibga soladi. Konchilik xuquqi Er xuquqidan quyidagi holatrarni tartiblashda foydalanada:

- Foydalai qazilma joylashgan maydonlardan foydalanish shartlarini belgilashda;
- Maishiy maqsadlarda qaziladigan quduq va burg‘i quduqlarni o‘rnatish va ulardan shaxsiy maqsadda foydalanish, Er osti inshoatlarini qurish, keng tarqalgan (qurilish materiallari) foydali qazilmalarni qazib olish uchun er uchastkalarini ajratishda;

- Er osti boyligidan foydalanganda er resurslarini muxofaza qilishda.

Ekologik xuquq - Xuquqning bu tarmog‘i tabiat va jamiyatdagi o‘zaro harakatlar doirasidagi munosabatlarni tartibga soladigan xuquqiy munosabatlar va meyorlar majmuidan iborat. Konchilik xuquqida ekologik xuquq meyorlari quydag‘i xolatlarni tartibga solishda foydalaniladi:

- Er qari uchastkalaridan foydalanganda muxofazani taminlash maqsadida cheklash shartlarini belgilashni tartibga solish;
- Er osti boyliklaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni olib borishda ularning atrof muhit uchun zararli tasiridan ogoh va bartaraf etish maqsadlarida davlat nazoratini tartibga solish.

Halqoro huquq - Huquqning bu tarmog‘i xorijiy tamoillardagi mulk, xorijlik jismoniy va yuridik shaxslar ishtirokidagi xuquqiy fuqorolik munosabatlar (halqoro shaxsiy huquq), Davlatlararo munosabatlar (oshkora xalqaro huquq) ni tartibga soluvchi meyorlar majmuini o‘zida mujassam etadi. Halqaro huquq meyorlari konvensiya, dalolatnama, halqaro tashkilotlarning nizomlari, halqaro shartnama va rusumlarda o‘z ifodasini topadi. Konchilik huquqida halqaro xuquq meyorlari:

- Er osti boyligidan foydalanish shartlarini kontenental shelif va ummon tubining halqaro xududlarida tartibga solishda;
- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarda qabul qilingan xuquq “Er osti boyligi to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga nisbatan ustuvorliligini belgilab olishda foydalaniladi. Takidlash lozimki, O‘zbekistonni halqaro xamjamiyatga integrallashuvi O‘zbekiston Respublikasining “Er osti boyliliklari to‘g‘risida” gi qonunni xorijiy davlatlarning xuddi shunday qonunchilik talablariga yaqinlashuvini toqozo etadi. SHuning uchun ham taraqqiy etgan kapitalistik davlatlardagi er osti boyligidan foydalanishni tartibga solishda huquqiy normalarini o‘rganish konchilik huquqini tormoq huquqi sifatidagi asosiy vazifasi hisoblanadi.


2.2. Konchilik huquqining fan sifatidagi o‘rni.

Nazariy muammolarning eng muhimini bu er osti boyligidan foydalanishdagi munosabatlarning o‘ziga xos huquqiy xususiyatlari haqidagi tasavvurlarni

chuquqlashtirishdir hamda huquqning mustaqil tarmog‘i doirasida er osti boyligidan foydalanishdagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish uslubini takomillashtirishdir.

Har qanday fan, o‘z – o‘zidan olganda, yopiq tafsifga ega bo‘lgan g‘oya va tushunchalarining konseptual tizimidan iborat. SHuning bilan birga bizning zamonimiz yangi fan va fan yo‘nalishlarining payda bo‘lishi, rivojlanishi va tashkil topishi balan tafsiflanadi. Ularning paydo bo‘lishligi ilmiy bilimlar darajasi va uslubiy tatqiqotlarning ishlanganligi, avvallari bir biridan uzoq tuyulgan jamoaviy munosabatlar, jarayon va voqealarning fundamental umumiyligi (birligini) kashf etishi bilan bog‘liq. SHuning uchun bizning fikrimizcha konchilik huquqini fan sifatida o‘rganishda uni bilimning boshqa sohalari bilan bog‘liqligini ko‘rsatib o‘tish prinsipial muhim masala. Bu er osti boyligidan foydalanishdagi munosabatlarni tartibga keltirishda huquqiy meyorlarning ilmiy asoslanganligini aniqlash uchun katta qiymatga ega.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, konchilik huquqi meyori va institutlarini (qoidalarini) ishlab chiqish uchun va ularni har xil ko‘rinishda amaliyotda qo‘llash uchun konchilik huquqi konchilik fanlari, geologiya, iqdisodiyot, ekologiya va boshqa fanlarni mavjud salohiyatidan foydalilaniladi (3.2 – chizma).



2 – chizma. Konchilik huquqining boshqa fanlar bilan o‘zoro munosabati.

Konchilik huquqi bilan konchilik sohasidagi fanlar orasidagi aloqa shu darajada yaqinki, hatto uni konchilik fanlari tarkibiga kiritish harakatlari mavjud. Takidlash lozimki, hozirgi zamon sharoitida konchilik fanlarining mohiyatini aniqlashda yangicha yondashish shakllanmoqda. Jumladan, konchilik fanlari bu er osti boyligi resurslarini o‘rganish, muxofaza qilish, qayta tiklash va ulardan foydalanish usul va vositalar sharoiti xaqidagi nazariy bilimlar majmui (tizimi) sifatida ko‘rilmoxda.

Konchilik fanlari va konchilik huquqi o‘rtasidagi o‘zoro bog‘liqlik quydagilarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda:

Birinchidan, er osti boyligidan foydalanishdagi munosabatlarning o‘ziga xosligi konchilik huquqi meyorlari bilan tartibga solinuvchi mustaqil predmet bo‘lib, konchilik fanlari tamonidan ham batafsil o‘rganiladi.

Ikkinchidan, konchilik xuquqi konchilik fanlarining bir qator yutuqlaridan foydalanadi. Jumladan:

- Er osti boyliklari resurslarining ilmiy tasniflanishi O‘zbekiston Respublikasi “Er osti boylliklari to‘g‘risida” gi qonunining “Er osti boyliklari mulkchiligi” bandida o‘z ifodasini topgan;

- Er osti boyligidan foydalanishda tog‘ jinslari massividagi geomexanik jarayonlarni boshqarishning ilmiy asoslari “Er osti boyliklari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining “Er osti boyliklaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan konchilik ishlarining havfsizligini taminlash buyicha asosiy talablar” ga oid bandini shaklantirishda qullanilgan;

- O‘zbekiston Respublikasi “Er osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonunning “Er osti boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni muxofalash” bandi shu masala yuzasidan shakllangan ilmiy asosli talablar tizimiga tayanib ishlab chiqilgan.

- O‘zbekiston Respublikasining “Er osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonunidagi “Er osti boyliklaridan foydalanuvchilarining asosiy huquqlari va majburiyatları” (32-modda) va “Er osti boyliklaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni bexatar olib borishning talablari” kabi moddalarida huquqiy me’yorlarni ishlab chiqiqqanda foydali qazilmalarni qazib olish bilan bog‘liq bo‘lmagan er osti inshootlarini qurish va ulardan foydalanish hamda foydali qazilmalarni qazib olish bilan bog‘liq bo‘lgan konchilik inshootlarining texnik va ekologik xavsizligiga bo‘lgan ilmiy asoslangan talablar tizimidan foydalanilgan.

- O‘zbekiston Respublikasining “Er osti boyliklari to‘g‘risida” gi qonunining “Foydali qazilmalarni qazib olish bilan bog‘liq bo‘lmagan er osti inshootlari va foydali qazilmalarni qazib oluvchi korhonalarini tugatish va to‘xtatish haqida” gi bandida shu masalalarga bag‘ishlangan ilmiy asoslangan talablar tizimi o‘z ifodasini topgan.

3.2 – chizmada keltirilgan boshqa fanlarning konchilik huquqi fanining meyori va institutlariga tasiri unchalik katta emas. SHunday bo‘lsada geologiya fanining quydagи yutuqlaridan konchilik huquqida foydalanilgan:

- O‘zbekiston Respublikasining “Er osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonunining “Er osti boyliklarini Davlat tamonidan geologik o‘rganish” bandidagi huquqiy normalarini asoslashda Er osti boyliklarini geologik o‘rganishning nazariya va uslublaridan foydalanilgan.
- Okean va dengizlar tubining rel’efi haqidagi ilmiy xulosalar BMTning 1982 yilda qabul qilingan “Dengiz huquqi haqida”gi Konvensiyasida o‘z ifodasini topgan.
- O‘zbekiston Respublikasining “Er osti boyliklari to‘g‘risida” gi qonunining “Er osti boyliklaridan foydalanuvchilarning asosiy huquq va majburiyatları” va “Er osti boyligidan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni havfsiz olib borishning asosiy talablari” kabi moddalarida keltirilgan huquqiy me’yorlarni ishlab chiqishda er osti boyligini geologik o‘rganishdagi ishlarni olib borishning ilmiy asoslangan talablar tizimidan foydalanilgan.
- O‘zbekiston Respublikasining “Er osti boyliklari to‘g‘risida” gi qonunning “Foydali qazilmalar zahirasining davlat balansi va konlarni namoyoni va konlarning davlat kadastirini yurgizish”, “Foydali qazilmalar zahirasining Davlat balansi”, “Konlar va ular namoyonining davlat kadastro”, “Er osti boyligi haqida geologik ma’lumotlar” kabi moddalarni xuquqiy normalarini ishlab chiqishda, er osti boyligidan foydalanishning geologik ma’lumotlar ta’minoti bilan bog‘liq nazariya va uslublardan foydalanilgan;
- O‘zbekiston Respublikasining “Er osti boyliklari to‘g‘risida” gi qonunining “Foydali qazilma zaxiralarni Davlat ekspirtizasi” bandidagi xuquqiy meyorlarni ishlab chiqishda foydali qazilma konlarining zaxirasini hisoblash uchun ilmiy asoslangan talablar tizimi qo‘llanilgan;
- Geologik zakaznik va qo‘riqxonalar sifatida foydalanadigan er osti uchastkalarining ilmiy va madaniy qadriyatini aniqlashda ilmiy asoslangan usullar qo‘llaniladi. Ana shu usullardan “Er osti boyliklari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston

Respublikasi qonunining “Ilmiy va madaniy qiymatga ega bo‘lgan er osti boyligi uchastkalarini muxofazalash” bandining xuquqiy meyorini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Iqtisodiyot bilan konchilik xuquqining bog‘liqligi geoekonomikaning quyidagi yutuqlaridan konchilik xuquqida foydalanilganlikda namayon bo‘ladi:

- O‘zbekiston Respublikasining “Er osti boyliklari to‘g‘risida” gi qonunining “Foydali qazilmalarning geologik-iqtisodiy baholash” bandining xuquqiy meyorlarini ishlab chiqishda foydali qazilma konlarini iqtisodiy-geologik baholashning nazariyasini va uslublari o‘z ifodasini topgan.

- O‘zbekiston Respublikasining “Er osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonunining “Er osti boyliklaridan foydalanilganligi uchun tulovlar” bandining huquqiy me’yorlarini ishlab chiqishda kon rentasi nazariyasidan foydalanilgan.

Ekologiya va konchilik huquqining o‘zara aloqasi konchilik huquqida kon ekoliyiyasining quyidagi yutuqlaridan foydalanilganligida namoyon bo‘lgan:

- O‘zbekiston Respublikasining “Er osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonunining “Er osti boyligidan foydalanishni cheklash”, ”Er osti boyligidan foydalanuvchilarning asosiy huquq va majburiyatları”, ”Ushbu qonunni buzganlik uchun javobgarlik” kabi bandlarining huquqiy me’yorlarini ishlab chiqishda er osti boyligidan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni olib borishda ekologik havfsizlikning ilmiy asoslangan talablaridan foydalanilgan.

Konchilik huquqini o‘quv predmeti sifatida o‘rganishdagi urni va mohiyati 1-ma’ruzaning 1.2-chizmasida to‘liq keltirilgan edi. Lekin konchilik huquqi fanini o‘rganishda bir qator hal etilishi zarur bo‘lgan muammolar mavjud:

Birinchisi - konchilik huquqi muammolariga bag‘ishlangan ilmiy-uslubiy, o‘quv hatto ammobop adabiyotlarning yo‘qligi.

Ikkinchisi -O‘zbekiston Respublikasining “Er osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonunining ikkinchi tahririda qo‘srimcha va o‘zgartirishlar bilan qabul qilinganligiga qaramay(2002 y 13 dekabr) u kamchiliklardan xoli emas. SHuning uchun ham konchilik huquqi fanidagi o‘quv materiallari ushbu qonunning chuqr tahliliga, uning

yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatgan holda, takomillashtirish yo‘lidagi konstruktiv taklif va g‘oyalarga bag‘ishlangan bo‘lishi kerak.

Uchunchisi - talabalarda huquqning umumiylar xarakterdagi boshlang‘ich bilimlari mukammal bo‘lmaganligi tufayli konchilik huquqining qonun va qoidalarini idrok etish qiyin kechmoqda. SHuning uchun bu fanni yuqori kurslarda “Huquqshunoslik” fanidan keyin o‘rganish maqsadga muvofiq.

Konchilik huquqini o‘rganishdagi muammolar bir-biriga chambarchas bog‘liq. Ko‘pchilik mutaxassislarning fikrlaricha er osti boyligi haqidagi qonunchilikni kodifikatsiya qilib, yagona omillarga tayangan O‘zbekiston Respublikasining “Er osti boyliklari” kodeksini yaratish zarurligi takilanmoqda. Bu albattda keng ko‘lamli ilmiy-amaliy izlanishlarni talab etadi.

Konchilik huquqini keltirilgan yo‘nalishlar buyicha chuqur o‘rganish konchibakalavrlni tayyorlashni yaxshilaydi va er osti boyligidan foydalanishning huquqiy tartibga solishni takomillashtiradi.

Lotin hikmati: Davlat manfati-oliy qonun.

(Salus rei publica surrema lex.)

2.3. Er osti boyliklaridan foydalanish munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish.

Er osti boyliklari-Davlat mulki ob’ekti

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (XII-bob, 55-modda) “Er osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliylar boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muxofazasidadir” –deyilgan. YOKI (IX-bob 36-modda) “Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli.”... o‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi er osti boyligiga nisbatan mulkchilikning har-xil shakllari bo‘lishi mumkinligini ko‘zda tutadi, lekin bugungi kunda er osti boyligiga bo‘lgan mulkiy munosabat O‘zbekiston Respublikasida uzil-kesil hal qilingan. O‘zbekiston Respublikasining “Er osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonunining 4-bandida “Er osti boyliklari O‘zbekiston

Respublikasining mulkidir, ular Davlat muxofazasida va ulardan oqilona foydalanish zarur (shart) “-deyilgan. Er osti boyliklarini egallahash, foydalanish va egalik qilish masalalari O‘zbekiston Respublikasi (va uning sub’ektlari) ixtiyoridadir.

Fuqarolik xuquqida xuquqiy kategoriylar (toifalar) ning mazmuni quyidagicha izoxlanadi:

Egallahash - bu mulkdorning jism ustidan xo‘jalik yuritish borasidagi xukmdorligini bildiradi. Jamoa yoki shaxsga jismni berkitib qo‘yilganligi, mulkning statik (turg‘un) munosabatni egallahashda o‘z ifodasini topadi.

Foydalanish - bu ishlab chiqarish uchun yoki shaxsiy istemol tufayli jismdan foydala xossalarin chiqarib olish(foydalanish)ni bildiradi.

Egalik qilish - bu jismga nisbatan uning taqdirini belgilovchi sayi - harakatlarni bildiradi. Bu jismni musodara qilish, yollashga berish, garovga qo‘yish, xattoki yo‘q qilib yuborish kabilardir.

Foydalanish va egalak qilishda mulkiy munosabatning dinamikasi ko‘rinmoqda. SHunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi xududida egallahash, foydalanish, egalik qilish masalalari er osti boyliklariga nisbatan xuquqiy rejimda qo‘llanilgan. Qonunda belgilanganidek, er osti boyligi uchastkalari sotish, sotib olish, sovg‘a qilish, garovga qo‘yish, xissadorlik qilish, musodara qilinishi mumkin emas. Er osti boyliklari O‘zbekiston Respublikasi mulki (O‘zbekiston Respublikasi er osti boyliklari to‘g‘risidagi qonuni 5-modda).

Nazorat savollari

1. Er osti boyliklaridan foydalanishdagi munosabatlarni tartiblash tamoillaridan biri bo‘lgan tengliklik tamoiliga ta’rif bering?
2. Fuqorolik huquqi nima?
3. Er osti boyliklari to‘g‘risidagi qonunning 19– moddasida nima deyilgan?
4. Davlat huquqi nima?
5. Mamuriy huquq nima?
6. Moliyaviy huquq nima?

7. Jinoiy xuquq nima?
8. Er xuquqi nima?
9. Fuqorolik huquqi nima?

Asosiy adabiyotlar

6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya. Rasmiy nashr.
7. O‘zbekiston Respublikasi «Er osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonun. 2002.
8. Pevzner M.E. Gornoe pravo.- M.: MGGU, 2002.
9. Raximov V.R., SHerfedinov L.Z. Gornoe pravo (Pravovoy poryadok nedropolzovaniya). Tashkent: TGTU, 2007.
10. Raximov V.R., Sayyidqosimov S.S. Konchilik huquqi, o‘quv qo‘llanma (El.v.), TashDTU, 2007 y.

3-maruza: Konchilik munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solishning umumiy masalalari.

Reja:

1. Bozor iktisodiyoti sharoitida davlat tomonidan tartibga solish.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining konchilik munosabatlari sohasidagi vakolatlari.
3. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining konchilik munosabatlari soxasidagi vakolatlari.
4. Sanoatda va konchilikda ishlarni bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligining vakolatlari.

Tayanch so‘z va iboralar: Bozor iktisodiyoti, boshkaruv, letsinziyalash, hisobot yuritish, er qa’rini muxofazalash.

3.1. Bozor iktisodiyoti sharoitida davlat tomonidan tartibga solish.

Bozor iktisodiyoti sharoitida davlat tomonidan tartibga solish davlat boshkaruvi faoliyatining muhim unsuri hisoblanadi. Maksadlar mushtarak bo‘lsada boshqaruv va tartibga solishda nisbatan har xil jarayonlarda davlatning ishtirokini ko‘prok ko‘zda tutadi. SHu jumladan, er osti boyliklarini boshqaruvida ham “Davlat boshqara turib tartibga soladi, tartibga sola turib boshkaradi”. Bu qadimdan ma’lum bulgan qoida.

O‘zbekiston Respublikasining “Er osti boyliklari tug‘risida”gi qonunida (2002 y 13 dekabr) konchilik munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi (II bob 7-18 moddalar) kuyidagicha bayon etilgan.

Konchilik munosabatlari sohasidagi davlat boshkaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Geologiya va meneral resurslar davlat qo‘mitasi, Sanoatda va konchilikda ishlarni bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligi konchilik munosabatlari sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Er osti boyliklari tugrisida”gi qonunining yangi taxririda konchilik munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi II bobning 5 ta moddasida o‘z ifodasini topgan.

- Konchilik munosabatlari sohasidagi davlat boshkaruvi;
- Konchilik munosabatlarini davlat boshkaruvi organlarining funksiyasi va tartibi;
- Foydalanishga berilgan er ka’ri uchastkalarining davlat hisobotini yuritish;
- Er qa’rini geologik jihatdan o‘rganish ishlarining davlat hisobini yuritish;
- Er qaridan foydalanish bilan bog‘liq ishlar bexatar olib borilishining davlat nazoratini tashkil qilish.

Qonunda er qaridan oqilona foydalanish va uni muxofaza kilishga oid talablar bat afsil bayon etilgan. Konchilik munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solishdan maksad O‘zbekiston Respublikasida yashayotgan xalqlarning bugungi va kelajak avlodlari manfaatlarini hisobga olgan holda mineral-xomashyo bazasini qayta

tiklash va undan oqilona foydalanish va er qarini muxofazalashdan iborat.

Konchilik munosabatlarini davlat tamonidan tartibga solinishi

boshkaruv, letsinziyalash, hisobot yuritish va **nazorat qilish** orqali amalga oshiriladi. Konchilik munosabatlarini tartibga soluvchi davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruvi umumiy va maxsus vakolatlarga egadirlar.Umumiy vakolatli davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi organlarining tarkibiga quyidagilar kiradi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy majlis, Vazirlar Maxkamasi, O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi respulika, viloyat, shahar (respublika ahamiyatiga molik) va mahalliy davlat hokimiyati organlari .

3.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining konchilik munosabatlari sohasidagi vakolatlari

- er osti boyliklari davlat fondini tasarruf etish;
- mineral -xomashyo bazasini rivojlantirish va takror hosil kilish, er ka’rini muxofaza etish davlat dasturlarini tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishini nazorat qilish;
- er qa’ri uchastkalarini foydalanishga berish va er qa’ri monitoringini amalga oshirish tartibini belgilash;
- foydalanishga berilgan er qa’ri uchastkalarining davlat hisobi yuritilishini va er qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqlarini davlat ruyxatidan o‘tkazilishini tashkil qilish;
- foydali qazilmalar zahiralarini tasdiqlash hamda foydali qazilmalar zaxiralari davlat balansi, foydali qazilma konlari, foydali qazilma belgilari va texnogen mineral hosilalar davlat kadastrini yuritilishi tartibini belgilash;
- keng tarqalgan foydali qazilmalar ruyxatini tasdiqlash;
- er qa’rini geologik jihatdan o‘rganish, undan foydalanishda va uni muxofazalash ustidan davlat nazoratini tashkil qilish;

3.3. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining konchilik munosabatlari soxasidagi vakolatlari

- tegishli xududda mineral -xomashyo bazasini rivojlantirish va takror hosil kilish, er ka'rini muxofaza qilish davlat dasturlarini ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida ishtirok etish hamda ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- keng tarqalgan foydali qazilmalar kavlab olinayotganda er qa'ridan foydalanish shartlarini kelishib olish;
- er qa'ridan foydalanish va uni muxofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi tabiatni muxofaza kilish davlat qo'mitasi vakalatlari:

- tabiiy resurslardan foydalanish va takror hosil qilish, tabiiy atrof- muhitni muxofaza kilish ustidan nazoratni amalga oshirish;
- tabiat muxofazasi bilan bog'liq bo'lgan idoralar faoliyatini muvofiqlashtiridi va kompleks boshqarishni amalga oshiradi;
- tabiatni muxafazalash va resurslarni tejashning yagona siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- ekologik holatni sog'lomlashtirish va atrof muxitning qulay ekologik sharoitini taminlash ishlarini nazorat qiladi. O'zbekiston Respublikasi tabiatni muxofaza qilish davlat qo'mitasi maxsus kompleks vakalotga ega bo'lgan idora hisoblanadi. U Oliy Majlisga bevosita hisobot beradi, qumita raisi Oliy Majlis tomonidan tayinlanadi, uning qarorlari vazirliklar, davlat qo'mitalari, idora va tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ijro etilishi shart. Ekologiya bilan bog'liq bo'lgan masalalarda halqaro va regional muammolarni echadi va sog'lijni saqlash, ichki ishlar vazirliklari, "Sanoat kon nazorat" agentligi. O'zgeokadastr, o'zgidromet, Davlat standarti, davlat qo'mitalari va boshqa idoralalarining faoliyatlarini muvofiqlashtiradi. Ekologik jamg'armani shakllantiradi. Ekologik qoida va meyorlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Davlat ekologik ekspertizasini olib boradi

va chiqindilarni joylashtirganlik hamda tabiiy atrof muhitni ifloslantirganligi uchun to‘lovlarni amalga oshirtiradi. Xo‘jalik yuritish uchun joylarni tanlash va er ajratmasini belgilash, yangi obektlarni qabul qilish va ishga tushirishda ishtirok etadi, kelishish amallarini bajaradi hamda Qizil kitob bo‘yicha nizomni tasdiqlaydi.

O‘zbekiston respublikasi geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi vakolatlariiga quydaglar kiradi:

- er qarini geologik maqsadlarda o‘rganish, undan foydalanish va muxofaza qilish yuzasidan davlat siyosatini ishlab chiqish;
- er qaridan oqilona foydalanish, uni muxofazalash va mineral-xomashyo bazasini takror hosil qilishni taminlash;
- er qaridan foydalanishning litsenziyalashni davlat tizimini tashkiliy ta’minlash;
- er qarini geologik o‘rganish, foydali qazilma konlarini qazib olish bilan bog‘liq bo‘lмаган maqsadlarda ishlatish kabi holatlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va davlat hisobotini olib borish;
- O‘zbekiston respublikasida er qaridan foydalanishning yagona informatsion tizimini yaratish;
- foydali qazilmalarni qazib olish bilan bog‘liq bo‘lмаган er osti inshootlarini qurish va ulardan foydalanish uchun yaroqli bo‘lgan er qari uchastkalaridagi foydali qazilmalar zaxirasini va geologik informatsiyani davlat ekspertizasidan o‘tkazish.

O‘zbekiston respublikasi geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi tarkibida Er osti boyliklari davlat jamg‘armasi faoliyat olib boradi.

Uning vakolatlari doirasiga quydagilar kiradi:

- O‘zbekiston Respublikasi xududini geologik o‘rganishining taxlilini, Respublika va uning regeonlarini mineral-xomashyo zaxiralari bilan taminlanganligini baholab borish;
- Mineral-xomashyo sifatini yaxshilash, foydalanish, ishlab chiqarish va kelajakda uni kengaytirish strategiyasi borasida takliflar tayyorlash, shunga yarasha davlat investitsiyalarini jalb qilish;

- Mineral-xomashyo bazasini kengaytirish va undan foydalanish dasturini ishlab chiqish;
- davlat ehtiyoji uchun o‘tkaziladigan geologiya-qidiruv ishlar uchun davlat buyurtmachisi funksiyasini bajarish;
- er qaridan foydalanuvchilar uchun belgilangan tartibda litsenziyalar berish;
- mineral-xomashyo bazasini takror hosil qilish uchun to‘lovlar stavkasi miqdorini belgilash yuzasidan takliflar tayyorlash;
- Sanoatkonnazorat agentligi bilan birgalikda keng tarqalgan foydali qazilmalar ro‘yxatini tayyorlash;
- davlat byudjeti hisobidan qo‘lga kiritilgan geologik informatsiyadan foydalanish shartlari va tartibini belgilab berish;
- kon belgilari va konlarning davlat kadastiri xamda kon zaxiralarining davlat balansini tuzish va yuritish, davlat balansiga olingan foydali qazilmalar zaxirasining yillik o‘sishi hisobotini yuritish tartibini belgilab berish;
- er qaridan oqilona foydalanish va uni muxofazalashning davlat nazoratini yuritish tartibini belgilash;
- er qarini geologik o‘rganish va undan foydalanish sohasida xalqoro hamkorlik tartibini belgilab chiqish;
- er qarini geologik o‘rginish qoidalari va meyorlarini tasdiqlash (Sanoat konnazorat agentligi bilan birgalikda)

Keltirilgan vakolatlар ro‘yxatидан ко‘риниб турбади, Геология ва минерал ресурслар давлат qо‘митаси Республика миқиёсидаги ijroiya hokimiyati organi bo‘lib, o‘z vakolatlari doirasida er osti boyliklari jamg‘armasini boshqarish, er qarini geologik o‘rganish va undan oqilona foydalanishni davlat tomonidan tartibga solish, idoralararo muvofiqlashtirish hamda er qaridan oqilona foydalanish va uni muxofazalashni davlat nazoratini olib borish ishlarini amalga oshirar uchun Qo‘mita qoshida davlat geologik nazorati tashkiloti faoliyat ko‘rsatadi va u “Sanoatkonnazorat” agentligi bilan hamkorlikda er qarini geologik o‘rganish, undan oqilona foydalanish va uni muxofazalash ustidan nazarat olib boradi. SHuning bilan birga konchilik ishlarini olib

borish natijasida ishga tushirilgan va ular bilan yonma – yon joylashgan konlarga ziyon etkazmaslik, konlarni qazib olish jarayonida foydali qazilma zaxirasi, uning nabud bo‘lishi va sifatsizlanishning hisobini olib boradi.

Vaqtincha foydanilmayotgan foydali qazilmalar va yo‘l-yo‘lakay qazib olinayotgan qo‘sishimcha foydali qazilmalar zaxirasi, texnogan hosilalar ham alohida hisobda turadi va nazoratda bo‘ladi.

3.4. Sanoatda va konchilikda ishlarni bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligining vakolatlari

Sanoatkonnazorat agentligi er qa’ridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni bexatar olib borilishi ustidan davlat nazoratini Respublika hududida amalga oshiradi. Huquq va majburiyatlar va ishslash tartibi uning nizomida belgilab berilgan va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan. Sanoatkonnazorat agentligi Respublikaning markaziy ijroiya organi bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi hududida sanoatda ishlarni bexatar olib borish masalalarini davlat tomonidan me’yoriy tartibga solishni amalga oshiradi hamda maxsus ruxsat berish, nazarat va kontrol qilish ishlarini olib boradi. Tartibga solish va nazorat qilish ishlari agentlikning regional idoralari (okruglar) orqali amalga oshiriladi va birgalikda yagona tizimni tashkil etadi.

“Sanoatkonnazorat” agentligining asosiy vazifalari:

- Respublika ahamiyatiga molik markaziy ijroiya organlari, korxonalar, tashkilotlar (tashkiliy-hududiy shaklidan qat’iy nazar), mas’ul shaxslar, fuqorolar tomonidan sanoatda ishlarni bexatar olib borish qoidalari va talablari hamda qurilmalarni xatarsiz ishlatish borasida havfsizlik va davlat nazoratini tartibga solishni Respublika hududida tashkil etish va amalga oshirish;
- er qa’ridan foydalanuvchilar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, tasdiqlangan va o‘rnatilgan tartibda ishlarni bexatar olib borish (qoidalari va me’yorlar), ularning aholiga, atrof tabiiy muhitga, halq hujaligi ob’ektlariga bo‘ladigan zararini oldini olish va ogohlantirishni ta’minlash va amalga oshrish maqsadida davlat konchilik nazoratini tashkil etish va amalga oshirish;
- mineral-xomashyoni qayta ishslash, er ka’rini muxofazalash, qurilmalarni

behatar ishlatish, o'rnatish, taylorlash va ishlarni behatar olib borish qoidalari, meyorlari va talablarini joriy etish.

- er qa'ridan foydalanilganda xavfsizlikni ta'minlash, sanoat ishlab chiqarishi (ob'ektlari) va ishlari bilan bog'liq bo'lgan o'ta xavfli ba'zi-bir faoliyat turlarini litsenziyalashni amalga oshirish.

Sanoatkonnazorat agentligi davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishni quyidagi hususiy xolatlar uchun amalga oshiradi:

- geologorazvedka ishlari, er ostida transportni va gidrotexnik inshootlarning qurilishini olib borish, konchilik ishlarini bexatar olib borish;
- portlatish materiallaridan sanoat miqyosida foydalanish va ularni saqlash;
- foydali qazilmalarlarni qazib olish va qayta ishlash hamda er qa'ridan,(shu jumladan ishlatib bo'lingan kon lahimlari) foydali qazilmani qazib olish bilan bog'liq bo'limgan maqsadda foydalanish va er qa'rini muxofazasi bilan bog'liq bo'lgan talablar, majburiyatlar, ishlarni bexatar olib borish qoidalari va me'yorlariga amal qilish;

“Sanoatkonnazorat” agentligiga quyidagi huquqlar berilgan:

- o'z vakolati doirasidagi barcha masalalar bo'yicha nazoratida bo'lgan korxonalar va ob'ektlarda to'xtovsiz(chegaralanmagan) tekshirishlar o'tkazish ;
- O'zbekiston hududida yuridik va jismoniy shaxslar uchun bajarilishi shart bo'lgan masalalar yuzasidan me'yoriy-texnikaviy xujjatlarni tasdiqlash (o'z vakolati doirasida);
- er qa'rini muxofazalash va xafsizlik qoida va me'yorlarni buzib olib borilayotgan ishlarni to'xtatib quyishi uchun ijrosi shart bo'lgan yozma ko'rsatmalar berish, avariya holatlari va insonlar hayotiga xavf tug'diradigan holatlarda ularni ish joylaridan chiqarib yuborish to'g'risida ko'rsatmalar berish, kerak bo'lgan hollarda ish joylari va qurilmalarning faoliyatini rasman cheklab quyish;
- ruxsat etilgan faoliyat huquqini ruxsatnomaga shartlari buzilgan hollarda to'xtatib quyish hatto bekor qilish, shuningdek avariya, insonlar o'limi yoki ularning sog'ligiga zarar etkaziladigan hollarda ham faoliyatni to'xtatib quyish.

- travmatizm sodir bo‘lgan hollarda texnik tekshirishlar olib borish va baxtsiz hodisalar sabablarini aniqlash hamda ularning natijalari bo‘yicha ijrosi shart bo‘lgan ko‘rsatmalar berish;
- masul shaxslar va fuqorolarni mamuriy javobgarlikga tortish (qonunda belgilangan tartibda) va kerak bo‘lganda materiallarni tergov, prakratura va sud idoralariga taqdim etish hamda gunohkor shaxslarni jinoiy javobgarlikga tortish uchun davo arizasini kiritish;
- o‘z vakolati doirasida ijroiya organlari, korxonalar va fuqorolar uchun ijrosi shart bo‘lgan qaror va ko‘rsatmalar berish.

Nazorat savollari.

1. Konchilik huquqini o‘rganishning yo‘nalishlari ko‘rsating?
2. Er qari uchastkalaridan foydalanish huquqini cheklash, to‘htatib turish va tugatish asoslari?
3. Er osti boyliklari to‘g‘risidagi qonunning 12– muddasida nima deyilgan?
4. Bozor iktisodiyoti sharoitida davlat tomonidan ыандай solinadi?
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining konchilik munosabatlari sohasidagi vakolatlari nimalardan iborat?
6. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining konchilik munosabatlari soxasidagi vakolatlari nimalardan iborat?
7. Sanoatda va konchilikda ishlarni bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligining vakolatlari nimalardan iborat?

Asosiy adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya. Rasmiy nashr.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi «Er osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonun. 2002.
- 3.Pevzner M.E. Gornoe pravo.- M.: MGGU, 2002.
- 4.Raximov V.R., SHerfedinov L.Z. Gornoe pravo (Pravovoy poryadok nedropolzovaniya). Tashkent: TGTU, 2007.
- 5.Raximov V.R., Sayyidqosimov S.S. Konchilik huquqi, o‘quv qo‘llanma (El.v.), TashDTU, 2007 y.

IV.AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg’ulot: Yer qa’ridan foydalanishdagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish usuli

MAVZUNI O’RGANISH RE’JALARI

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi konchilik huquqining asosiy manbai.
2. Fuqorolarning konchilik munosabatlari ishtirokchisi sifatidagi asosiy huquqlar, erkinliklari va burchlari.
3. Konchilik munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik asoslari.
4. Konchilik munosabatlaridagi davlar hokimiyati va boshqaruv organlarining huquqiy holati.
5. Konchilik munosabatlarida qonunchilikning qonuniylik va ijtimoiy adolatni ta’minlash kafolatlari.

Ishdan maqsad:

Konlarni ochiq usulda qazib olish sharoitida bajariladigan konchilik ishlarini huquqiy me’yoriy talablarga mosligini aniqlash.

Topshiriq:

Rudalarni ochiq usulda qazib olish sharoitida O'zbekiston Respubliksi Yer osti boyliklari to'g'risidagi qonundan kelib chiqib konchilik ishlarini bexatar olib borishning xuquqiy normalarini ishlab chiqing.

Er osti boyligi deganda ko'pchilik hozirgacha foydali qazilmalarni tushunishadi. Bunday o'xshashlik mohiyatan noto'g'ri. Foydali qazilmalar – bu er osti boyligining faqat bir qismi. Er osti boyligi – bu er ostidagi tabiiy muhitning bir qismi bo'lib unda foydali qazilmalar, minerallar, tog' jinslari va boshqa unsurlar makon topgan.

YAna bir masala – bu “Er qarining” chegara masalasi. Masalaning muhimligi shundaki qachon va qay holatda “Er osti boyligi to'g'risidagi” gi va Er kodeksini qo'llash chegarasini aniqlab olish kerak bo'ladi.


Ayniqsa davlatlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishda “Er osti boyligini” nafaqat chuqurlik bo'yicha, balki plandagi chegarasi ham muhim omil hisoblanadi. SHulardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining “Er osti boyliklari haqida” gi qonunida bu atamaga quyidagicha ta'rif berilgan: “Er qa'ri – bu geologik nuqtai nazaridan o'rganish va o'zlashtirish imkonini bo'lgan chuqurlikkacha cho'zilgan, erving tuproq qatlami va suv havzasining tubidan pastda joylashgan er osti fazosining bir qismidir”.

Amaliy mashg'ulotda “Ajjurali arra” metodidan foydalilanildi.

“AJURLI ARRA” METODI


“Ajurli arra” (fransuzcha “ajour” – bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq) metodi o'quvchi (talaba)larga yaxlit muayyan mavzuni bir nechta qismlarga ajratish orqali mohiyatini yoritish imkoniyatini yaratadi. Ushbu metod qo'llanilganda o'quvchi (talaba)lar tayyor matnlar bilan ishlaydi.

Mashg‘ulotda metodni qo‘llash quyidagi taxlitda amalga oshiriladi:



Metodni qo'llashda ta'lim oluvchilarning mavzuni puxta o'zlashtirganliklari, o'zlari ega bo'lgan bilimlarni boshqalarga etkazib berish layoqatiga ega bo'lishlari muhim sanaladi.

“Ajurli arra” metodining texnologik modeli quyidagicha:



Tinglovchilani kichik guruhlarga ajratish va qo'yidagi vazifalarni berish:

1 guruh vazifa: Er osti boyliklaridan foydalanishdagi munosabatlarni tartiblash tamoyillari

2-guruh vazifa: Qonunchilik tarmoqlarining klassifikatori

3-guruh vazifa: Konchilik huquqi tarmog'i tarkibida quydagи qo'shimcha tarmoqlar.

Kichik guruhlarga o'qib o'rganishlari materiallar taraqatiladi. Guruhlar avvol o'zlari o'rganim chiqadilar keyin boshqa guruhlarga o'rgatadi. Keyingi bosqichda har bir guruh o'rganilgan material yuzasidan muammoli savol topshiriqlar ishlab chiqadi va boshqa guruh a'zolari bajarishlari uchun beriladi.

Guruhanlarning o'qib o'rganishi uchun topshiriqlar:

1 guruh vazifa: Er osti boyliklaridan foydalanishdagi munosabatlarni tartiblash tamoyillari

Tobelik tamoyili – bu er osti boyligini Davlat mulki sifatidagi munosabatlarni tartibga keltirish uchun qo'llaniladi va asosan, Er osti boyligi Davlat jamg'armasiga

egalik qilish, foydalanish va boshqarish bilan bog‘liq. Davlat birinchidan ushbu tamoyilni huquqiy meyorlarda qo‘llash orqali er osti boyligi jamg‘armasini boshqarish tizimi va vakolat doirasini, ikkinchidan, er osti boyligidan foydalanish tartibi, undan foydalanuvchilarning huquqi, majburiyati va masuliyatini belgilab beradi.

Bo‘lishishlik tamoyili – Davlat mulki hisoblangan er osti boyligining turlarini belgilab olishda qo‘llaniladi:

Tengliklik tamoyili – er osti boyligidan foydalanish huquqini olish tartibini belgilashda qo‘llaniladi. Davlat er osti boyligidan foydalanishdagi huquqiy meyorlarda bu tamoyilni foydalanuvchi subektlar uchun qonunchilik tartibida konkurs (tanlov) yoki auksion orqali litsenziya olishliklarida teng huquqiy sharoit yaratadi.

Kelishlilik tamoyili – kon ajratmasi yoki er ajratmasining chegaralarini belshilashda qo‘llaniladi. Davlat huquqiy meyorlarda kelishlilik tamoyilini qo‘llash orqali kon ajratmasining vaqtinchalik va aniqlangan chegaralarini belgilashning kelishishlilik tartibini va konchilik korxonasini qurish va undan foydalanish uchun zarur bo‘lgan er ajratmasi chegaralarini belgilash tartibini o‘rnatadi.

CHeklashlik tamoyili – Er osti boyligidan foydalanuvchilarning majburiyat va masuliyatlarini aniqlashda qo‘llaniladi. Davlat huquqiy meyorlarida bu tamoilni qo‘llash orqali er osti boyligidan oqilona foydalanish va ularni muxofaza qilish hamda bu talablarga rioya qilinganda javobgarlik asoslarini belgilovchi talablarni o‘rnatadi.

2-guruh vazifa: Qonunchilik tarmoqlarining klassifikatori.

- Er osti boyligidan foydalanish va uni muxofaza qilishning umumiyligi masalalari;
- Er osti boyliklaridan foydalanish va ularni muxofazasini boshqarish hamda nazorat qilish;
- Ert osti boyliklari Davlat jamg‘armasi, foydali qazilma konlari va ular namayon bo‘lgan joylarning Davlat kadastr;
- Er osti boyliklari multkchiligi,
- Er osti boyligidan foydalanish,

- Er osti boyligidan foydalanish turlari, er osti boyliklaridan foydalanuvchilarning asosiy huquq va majburiyatlari, er osti boyliklaridan foydalanuvchilar uchun to‘lovlar, Er osti boyligidan foydalanishga o‘tkaziladigan tanlov va auksionlar.
- Er osti boyligi muxofazasi,
- Foydali qazilma konlari zaxirasining Davlat ekspertizasi.
- Er osti boyligi xaqidagi qonunchilikni buzganlik masuliyati.

3-guruh vazifa: Konchilik huquqi tarmog‘i tarkibida quydagi qo‘sishimcha tarmoqlar.

- Er qarini geologik jixatdan o‘rganishda sodir bo‘ladigan jamoaviy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy qo‘sishimcha tarmog‘i.
- Foydali qazilma konlarini qazib olish jarayonida sodir bo‘ladigan jamoaviy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqning qo‘sishimcha tarmog‘i.
- Foydali qazilma konlarini qazib olish bilan bog‘liq bo‘lmagan er osti inshoatlarini qurish va ulardan foydalanish jarayonida sodir bo‘ladigan jamoaviy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqning qo‘sishimcha tarmog‘i.
- Konchilik huquqi institatlari (idoralari) – er osti boyligidan foydalanishdagi munosabatlarning mustaqil qismini tartibga soluvchi huquqiy meyorlar majmui.
- Konchilik huquqi instituti o‘z ichiga quydagilarni oladi: - Er osti boyligiga Davlat mulkchilik maqomini tartibga soluvchi meyorlar guruhi.
- Er osti boyligidan foydalanishdagi munosabatlarni Davlat tamonidan boshqarilishi;
- Er osti boyligidan foydalanishning litsenziyalash tartibi;
- Er osti boyligidan foydalanganlik uchun to‘lovni amalga oshirilishi;
- Er osti boyligidan oqilona foydalanish va uni muxofaza qilinishi.

Xar bir guruh guruhlar tomonidan berilgan vazifalarni bajaradi, vazifalar berilgan guruh va o‘qituvchi tomonidan baholinadi.

SAVOLLAR VA TOPShIRIQLAR

1. Konchilik huquqi manbalari tushunchasi nima?
2. Konchilik huquqining manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'rni qanday?
3. O'zbekiston Respublikasi qonunlari va normative huquqiy hujjatlari manba sifatida qanday ahamiyatga ega?
4. Konchilik huquqi manbalari tushunchasi nima?
5. Konchilik huquqining manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'rni qanday?
6. O'zbekiston Respublikasi qonunlari va normativ huquqiy hujjatlari manba sifatida qanday ahamiyatga ega?

2-Amaliy mashg'ulot

KONCHILIK HUQUQINI O'RGANISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Ishdan maqsad:

Konlarni yer osti usulida qazib olish sharoitida bajariladigan konchilik ishlarini huquqiy me'yoriy talablarga mosligini aniqlash.

Topshiriq:

Rudalarni yer osti usulida qazib olish sharoitida O'zbekiston Respubliksi Yer osti boyliklari to'g'risidagi qonundan kelib chiqib konchilik ishlarini bexatar olib borishning xuquaiv normalarini ishlab chiaing.



1 – chizma. Konchilik huquqning boshqa huquq tarmoqlari bilan o‘zaro munosabati.

Davlat huquqi – huquqning bu tarmog‘i mamlakatda davlat va jamiyat tuzumi va qurilishi asoslарining mustahkamlovchi, fuqorolarning asosiy xuquqi, majburiyati va erkinligini taminlovchi, davlat hokimiyati va mahalliy hokimiyatlar idoralarini tashkil etish va vakolatlarni belgilovchi meyordarni birlashtiradi.

Mamuriy huquq - Huquqning bu tarmog‘i davlat boshqaruvidagi, birinchi navbatda, hukumatning faoliyatidagi va uning ijroiya organlari va obektlari

faoliyatidagi, shuning bilan birga mamuriy javobgarlikni balgilashdagi munosabatlarni tartibga soladi.

Moliyaviy huquq - Huquqning bu tarmog‘i moliyaviy faoliyat doirasida jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqlar majmuasini taqdim etadi.

Alohidat huquqiy meyorlar kompleksi (huquqiy institut) yordamida majburiy to‘lov va soliqlar hamda ularni undirish tartibini o‘rnatish moliyaviy huquqning muhum qismi hisoblanadi. Konchilik huquqi moliyaviy huquq meyorlaridan er osti boyligidan foydalanilgani uchun to‘lovlarni undirishni taminlashda foydalanadi.

Fuqorolik huquqi - Huquqning bu tarmog‘i tamonlarning yuridik tengligi asosida har xil mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Jinoiy xuquq - Xuquqning bu tarmog‘i jamiyat uchun havfli bo‘lgan harakatlar doirasini belgilab beruvchi meyorlar to‘plami (kompleksi) dan iborat bo‘lib, ular yordamida sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo turi va muddati belgilanadi, agarda mazkur havfli xarakat jinoyat deb baholansa, yoki jinoyat javobgarligidan ozod etiladi, agar u jinoiy harakat bo‘lmasa.

Er xuquqi - Xuquqning bu tarmog‘i davlat mulki yoki xususiy shaxs egaligidagi er resurslarini boshqarish, foydalanish va ularni muxofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarni tartibga soladi.

Ekologik xuquq - Xuquqning bu tarmog‘i tabiat va jamiyatdagi o‘zaro harakatlar doirasidagi munosabatlarni tartibga soladigan xuquqiy munosabatlar va meyorlar majmuidan iborat.

Halqoro huquq - Huquqning bu tarmog‘i xorijiy tamoillardagi mult, xorijlik jismoniy va yuridik shaxslar ishtirokidagi xuquqiy fuqorolik munosabatlar, Davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi meyorlar majmuini o‘zida mujassam etadi.

Konchilik huquqning boshqa huquq tarmoqlari bilan o‘zaro munosabatini tinglovchilarga “Venn diogrammasi” yordamida o‘rganish va tahlil qilish uchun beriladi.

«Venn diagramma» metodi

«Venn diagramma» metodi- o‘rganilayotgan ob’ektlarning 2 yoki 3 jihatlarni hamda umumiylarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Venn diagrammani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida/kichik guruhlarda Venn diagrammani tuzadilar va kesishmaydigan joylarni to‘ldiradilar.

“Venn diagramma” metodi tinglovchilarda o‘rganilayotgan ob’ektlarning o‘ziga xos va o‘xshash jihatlarini tahlil qilish malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

“Venn diagramma” metodidan nazariy mashg‘ulotlarda, amaliy, seminar hamda laboratoriya mashg‘ulotlarida keng foydalanish imkoniyati majud. Ushbu metoddan mashg‘ulotda foydalanilganda mavzuni tushuntirish ason bo‘ladi hamda ta’lim oluvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishi yuqori darajada bo‘ladi va mavzu tushuntirilayotganda faol ishtirokchiga aylanadi.

«Venn» diagrammasi - 2 yoki 3 ob'ektni, tushunchani, g'oyani, xodisani taqqoslash faoliyatini tashkil etish jarayonida ishlataladi. U talabalarda taqqoslash, tahlil qilish, guruxlash malakalarini shakllantiradi.



1-bosqich

Talabalar ushbu diagrammani tuzish qoidalari bilan tanishtiliadi

2-bosqich

Yakka, juftlikda yoki kichik guruhlarda diagramma asosida taqqoslash faoliyati tashkil etiladi

3-bosqich


O'xshash va farqli xususiyatlar diagrammaga yoki jadvalga tushiriladi

4-bosqich


Faoliyat natijalari tahlil qilinadi va baholanadi

Kichik guruhlar shakllantiriladi va qo'yidagi vazifalar beriladi:


1-guruhgaga vazifa: Davlat huquq va Ma'muriy huquq va Moliyaviy huquqning o'ziga xos va umumiylarini toping



2-guruhgə vazifa: Fuqoralik huquq va Jinoiy huquq va Moliyaviy huquqning o‘ziga xos va umumiylarini toping.



3-guruhgə vazifa: Er va Ekologik huquq va Halqaro huquqning o‘ziga xos va umumiylarini toping.



Berilgan vazifa tinglovchilar tomonidan taqdimot qilinadi va baholaniladi.

MAVZUNI O'RGANISH REJALARI

1. Konchilik ishlari faoliyatining ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi qonun hujjatlari.
2. Konchilikda litsenziya talab qilinadigan faoliyat turlari.
3. Litsenziyalashni amalga oshirish tartibi.
4. Konchilik ishlari faoliyatining ayrim mahsulotlarini sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari.
5. Konchilik mahsulotlarini ixtiyoriy va majburiy sertifikatlashtirish.
6. Metrologiya to'g'risida qonun hujjatlari.
7. O'zbekiston Respublikasining metrologiya xizmatlari. Konchilik korxonalarining metrologiya xizmatlari.
8. Konchilik korxonasida qo'llaniladigan o'lchov vositalarining turlari va ularni tekshiruvdan o'tkazish tartibi.
9. Standartlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari.
10. Standartlashtirishda davlat nazorati.

3-Amaliy mashg'ulot

KONCHILIK MUNOSABATLARINING DAVLAT TOMNONIDAN TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY MASALALARI

Ishdan maqsad:

Qazib olingan foydali qazilmalarni *boyitishda* bajariladigan konchilik ishlarini huquqiy me'yoriy talablarga mosligini aniqlash.

Topshiriq:

Qazib olingan foydali qazilmalarni *boyitishda* O'zbekiston Respubliksi Yer osti boyliklari to'g'risidagi qonundan kelib chiqib konchilik ishlarini bexatar olib borishning xuquqiy normalarini ishlab chiqing.

Nazariy muammolarning eng muhimi bu er osti boyligidan foydalanishdagi munosabatlarning o'ziga xos huquqiy xususiyatlari haqidagi tasavvurlarni chuquqlashtirishdir hamda huquqning mustaqil tarmog'i doirasida er osti boyligidan foydalanishdagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish uslubini takomillashtirishdir.

Har qanday fan, o'z – o'zidan olganda, yopiq tafsifga ega bo'lgan g'oya va tushunchalarning konseptual tizimidan iborat. SHuning bilan birga bizning zamonimiz yangi fan va fan yo'nalishlarining payda bo'lishi, rivojlanishi va tashkil topishi balan tafsiflanadi. Ularning paydo bo'lishligi ilmiy bilimlar darajasi va uslubiy tatqiqotlarning ishlanganligi, avvallari bir biridan uzoq tuyulgan jamoaviy munosabatlar, jarayon va voqealarning fundamental umumiyligi (birligini) kashf etishi bilan bog'liq. SHuning uchun bizning fikrimizcha konchilik huquqini fan sifatida o'rganishda uni bilimning boshqa sohalari bilan bog'liqligini ko'rsatib o'tish prinsipial muhim masala. Bu er osti boyligidan foydalanishdagi munosabatlarni tartibga

keltirishda huquqiy meyorlarning ilmiy asoslanganligini aniqlash uchun katta qiymatga ega.

MAVZUNI O'RGANISH REJALARI

1. Yer osti boyliklaridan foydalanish huquqining taqdim etilishi.
2. Yer osti boyliklariga nisbatan mulk huquqi.
3. Yer osti boyliklaridan foydalanishga oid bitim va shartnomalarning turlari va ularning huquqiy xususiyatlari.
 - 3.1. Kontsessiya shartnomasi, huquqiy belgilari va uning xususiyatlari.
 - 3.2. Yer osti boyliklaridan foydalanishga oid bitim va shartnomalarning tasnifi:
 - ijara shartnomasi;
 - mahsulot taqsimotiga oid bitim.
4. Yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish va uni muhofazalashning huquqiy talablari.
 - 4.1.Yer qa'rini geologik jihatdan o'rganishga doir huquqiy talablar.
 - 4.2.Foydali qazilma konlarini o'zlashtirish va mineral xomashyoni qayta ishlashga doir huquqiy talablar.
 - 4.3.Foydali qazilma konlarini kavlab olish bilan bog'liq bo'limgan yer osti inshootlarini qurish va ulardan foydalanishning huquqiy talablari.
 - 4.4.Konchilikda ishlarni bexatar olib borishni ta'minlashning qonuniy talablari.
- 4.5.Yer osti boyliklari joylashgan maydonlarda imorat qurishning qonuniy shartlari.
5. Yer osti boyliklaridan foydalanishning haq evaziga amalga oshirilishi.
 - 5.1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun to'lovlar, soliq stavkalari, soliq imtiyozlari.
6. Konchilik munosabatlariga oid qonun talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik.

SAVOLLAR VA TOPShIRIQLAR

1. Yer osti boyliklariga nisbatan mulk huquqining huquqiy asoslari nimalardan iborat?
2. Yer osti boyliklariga nisbatan xo'jalik yuritish huquqining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Yer osti boyliklaridan foydalanish maqsadida tashkil etilgan unitar korxonaning huquqiy maqomi nimada?
4. Yer osti boyliklaridan foydalanish huquqining turlari va mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
5. Yer osti boyliklariga nisbatan egalik qilish va foydalanish huquqining vujudga kelish asosi nimada?
6. Yer osti boyliklariga nisbatan mulk huquqining o'ziga xos xususiyatlarini keltiring?
7. Kontsessiya shartnomasi huquqiy asoslari nimadan iborat?
8. Kontsessiyachilik faoliyat- sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning asosiy printsiplari nimalardan iborat?
9. Yer osti boyliklari uchastkasidan foydalanishni ijara shartnomasi bo'yicha taraflarning huquq va majburiyatlarini izohlab bering?
10. Ijara shartnomasi va kontsessiya shartnomasi o'rtasidagi farqni tushuntirib bering?
11. Yer osti boyliklaridan foydalanish bo'yicha mahsulot taqsimotiga oid bitimlarning boshqa shu sohadagi fuqarolik-huquqiy shartnomalardan farqli jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
12. Yer qa'ridan foydalanishni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
13. Yer ka'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovi, soliq stavkasi va soliq imtiyozlari deganda nimani tushunasiz?
14. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq imtiyozlarining normativ-huquqiy asoslari nimalardan iborat va belgilanishi qay tartibda amalga oshiriladi?

Mavzu yuzasidan tinglovchilar bilan bahs-munozara o‘tkaziladi.

“BAHS-MUNOZARA” METODI

Metod ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan muayyan vaqt oralig‘i va qat’iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og‘zaki bahs bo‘lib, o‘quvchi (talaba)larda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quv mashg‘ulotlarida bahs-munozaradan foydalanishda mavzuga doir ma’lum masalalar hal qilinadi.

Metodni qo‘llashda quyidagi tartibda ish ko‘riladi:

Bahs-munozara uchun tanlangan mavzu o‘quvchi (talaba)larga oldindan ma’lum qilinadi

Jarayon o‘qituvchi (yoki boshlovchi) tomonidan boshqarilib boriladi

O‘quvchi (talaba)lar individual, guruh (juftlik) nomidan bahs yuritilayotgan masala bo‘yicha shaxsiy mulohazalarni bayon qiladi

Bahsda masalaning mohiyati, yechimi bo‘yicha bir-biriga zid fikrlar ilgari suriladi

Yechim bo‘yicha asosiy fikrni bayon etadigan o‘quvchi (talaba)larga 10 daqiqa, qo‘sishma qilish istagida bo‘lganlarga esa 5 daqiqadan vaqt beriladi

O‘qituvchi (boshlovchi) tomonidan bahs-munozara
yuzasidan yakuniy xulosa bildiriladi

Izoh: 1) bir ta’lim oluvchiga ikki marta so‘zga chiqishga ruxsat etilmaydi;

2) Boshlovchi ta’lim oluvchilarning mavzudan chetga chiqmasliklarini qat’iy nazorat qilib boradi, bordi-yu, shunday holatlar sodir etilsa, so‘zlovchilar bu haqida ogohlantiriladi.

Bahs-munozara uchun berildin savollar:

1. Konchilik munosabatlarini davlat tamonidan tartibga solinishi.

2. Sanoat kon nazorat agentligi davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishningi hususiy xolatlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining konchilik munosabatlari sohasidagi vakolatlari
4. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining konchilik munosabatlari soxasidagi vakolatlari

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'1 - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li.- T.11 .-T.: O'zbekiston, 2003.
2. O'zbekiston Respublikasining "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida" gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. - 2002. - №1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. NORMA axborot-huquqiy tizimi. OOO "NORMA-NAMKOR" - 2004.
3. O'zbekiston Respublikasining "Er osti boyliklari to'g'risida" gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. - 2002. - №1.
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. NORMA axborot-huquqiy tizimi. OOO "NORMA-NAMKOR" - 2004.
5. "Yer osti boyliklaridan foydalanish uchun soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomalar". 2002 yil 14 yanvardagi 6/2002-10-son BM ning qarori bilan tasdiqlangan. NORMA axborot-huquqiy tizimi. OOO "NORMA-HAMKOR" - 2004.
6. Hamroev S.S. Yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish muammolari. - T.: TDYuI, 2003.
10. Sayyidqosimov S.S. Konchilik huquqi. Ma'ruzalar matnining to'plami. - T.; ToshDTU, 2007
11. Rahimov V.R., Sayyidqosimov S.S. Konchilik huquqi. O'quv qo'llanma(e.v.), T.:ToshDTU, 2007

4-Amaliy mashg'ulot

YER QA'RIDAN FOYDALANISH UCHUN TO'LOVLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Ishdan maqsad:

Konlarni *kombinatsion usulda* qazib olish sharoitida bajariladigan konchilik ishlarini huquqiy me'yoriy talablarga mosligini aniqlash.

Topshiriq:


Rudalarni *kombinatsion usulda* qazib olish sharoitida O'zbekiston Respubliksi Yer osti boyliklari to'g'risidagi qonundan kelib chiqib konchilik ishlarini bexatar olib borishning xuquqiy normalarini ishlab chiqing.

Keltirilgan vakolatlar ro'yxatidan ko'rinish turibdiki, Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi respublika miqiyosidagi ijroiya hokimiyati organi bo'lib, o'z vakolatlari doirasida er osti boyliklari jamg'armasini boshqarish, er qarini geologik o'rganish va undan oqilona foydalanishni davlat tomonidan tartibga solish, idoralararo muvofiqlashtirish hamda er qaridan oqilona foydalanish va uni muxofazalashni davlat nazoratini olib borish ishlarini amalga oshirar uchun Qo'mita qoshida davlat geologik nazorati tashkiloti faoliyat ko'rsatadi va u "Sanoatkonnazorat" agentligi bilan hamkorlikda er qarini geologik o'rganish, undan oqilona foydalanish va uni muxofazalash ustidan nazarat olib boradi. SHuning bilan birga konchilik ishlarini olib borish natijasida ishga tushirilgan va ular bilan yonma – yon joylashgan konlarga ziyon etkazmaslik, konlarni qazib olish jarayonida foydali qazilma zaxirasi, uning nabud bo'lishi va sifatsizlanishning hisobini olib boradi.

Vaqtincha foydanilmayotgan foydali qazilmalar va yo‘l-yo‘lakay qazib olinayotgan qo‘sishimcha foydali qazilmalar zaxirasi, texnongan hosilalar ham alohida hisobda turadi va nazoratda bo‘ladi.

Amaliy mashg‘ulotda har bir tinglovchiga bo‘sh joylarni to‘ldirish uchun tarqatma materiallar berish.

Ishlab chiqarilgan mahsulotni taqsimlash, soliq va boshqa to‘lovlarni amalga oshirish sxemasi.



Mineral – xomashyoni tiklash uchun to‘lovlar.

Huquqiy norma respublikamizda oxirgi yillarda qisqarib borayotgan geologiya-razvedka ishlarini va mineral xom ashyo bazasining tiklash jadalligi pasaytirishni oldini oladi. Foydali qazilmani kavlab chiqarish tufayli hisobdan chiqarilayotgan zahiraning yangisi hisobdan tiklanish darajasi tiklanish koffitsenti k bilan ifodalanadi.

K – malum bir foydali qazilma zahirasining biror –bir muddat ichida ko‘payganlik miqdorining (PQ) shu vaqt ichida hisobdan (qazib olingan) chiqarilgan hajmi (D) nisbatiga teng.

$K=PQ/D$ K- ning kritik miqdori 2 ga teng. K ning kritik miqdoridan pasayishi mineoal xom ashyo bazasining kamayishiga olib keladi va uning oqibati har bir davlat uchun yomon bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan konchilik korxonalarida foydali qazilma zahiralarining kamayib borayotganligi oydek ravshan. Malumotlarga qaraganda, dunyo amaliyotida K ning qiymati bizga qaraganda birnecha barobar katta, chunki buning asosiy sabablaridan biri bu konchilik kompaniyalarining mineral xomashyo bazasini egallash borasida kurashdagi konkurensiya. Malumki, foydali qazilma koni uchun moliyaviy qo‘yilma kelajakda yaxshigina foya keltirishi muqarrar. SHuning uchun konlarni o‘zlashtirishining shartlari va iqlisodiy axvolini o‘zgartirishni oldindan hisobga olib mineral xomashyo zahirasini o‘ziga xos “sug‘urtalash” shakllarini qo‘llash zarurati ko‘zda tutiladi.

“Muammoli vaziyat” metodi

“Muammoli vaziyat” metodi - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning

echimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni echish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

Tinglovchilar berilgan muammoni o‘rganib chiqib sababi, oqibatlari va bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqadi va taqdimot qiladi.

| Muammo | Muammoning kelib chiqish sabablari | Muammoni bartaraf etish yo‘llari | Muammo olib keladigan oqibatlar |
|---------------------------------|------------------------------------|----------------------------------|---------------------------------|
| Respublikamizda faoliyat | | | |

| | | | |
|---|--|--|--|
| ko‘rsatayotgan konchilik korxonalarida foydali qazilma zahiralarining kamayib borayotganligi | | | |
| | | | |

Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil echimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birqalikda muammoli vaziyatni echish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR

1. Tabiiy resurslardan foydalanishning huquqiy asoslari nimalardan iborat?
2. Tabiiy resurslarga nisbatan xo'jalik yuritish huquqi nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Tabiiy resurslarga nisbatan egalik qilish va foydalanish huquqining paydo bo'lish asosi nimada?
4. Yer qa'rini geologik o'rganish jarayonida ekologiyaga bo'lgan ta'sir qanday huquqiy tartibga solinadi?
5. Konlarni kazib olish jarayonida sodir bo'ladigan ekologik buzilishlarni qanday huquqiy tartibga solish mumkin?
6. Mineral xomashyoni qayta ishlash jarayonida sodir bo'ladigan salbiy ekologik ta'sirlar qanday huquqiy tartibga solinadi?
7. Konchilik sanoati chiqindilarini joylashtirishning hukuqiy asoslari nimalardan iborat?
8. Ekologik ekspertizani o'tkazishni huquqiy tartibga solish uchun nima qilish kerak?
9. Ekologik monitoring, nazorat va audit O'zbekiston Respublikasining qaysi qonunlariga tayangan holda amalga oshiriladi?
15. Tabiiy resurslardan foydalanganlik, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatganlik, o'rnatilgan normativ ko'rsatkichlarni ta'minlamaganlik uchun to'lovlar qanday tartibda bajariladi?

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Er osti boyliklari to'g'risida" gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. - 2002. - №1.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza to'g'risida" gi Qonuni. - T.: Adolat, 2001.
3. O'zbekiston Respublikasining "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida" gi Qonuni. - T.: Adolat, 2001.
4. Национальный доклад «О состоянии окружающей среды и использовании природных ресурсов Республики Узбекистан». *Ehinot - ENK*, 2006.
5. Певзнер М.Е. Горная экология.- М.: МГГУ, 2003.
6. Холмўминов Ж.Т. Экологическое право (Альбом схем). - Т.: Академия МВД РУз, 2002.
10. Sayyidkosimov S.S. Konchilik huquqi. Ma'ruzalar matnining to'plami. - T.; ToshDTU, 2007.
11. Rahimov V.R., Sayyidqosimov S.S. Konchilik huquqi. O'quv qo'llanma (e.v.), T.:ToshDTU, 2007.

V. GLOSSARIY

| | | |
|--|--|--|
| AVARIYA CRASH BAHTSIZ HODISA | <p>разрушение сооружений и (или) технических устройств, применяемых на опасном производственном объекте, неконтролируемые взрывы и (или) выброс опасных веществ.</p> | <p>the destruction of constructions and (or) technical devices used at hazardous production facilities, uncontrolled explosion and (or) release of hazardous substances.</p> |
| ADMINISTRATIVNAYA OTVETSTVENNOST ADMINISTRATIVE RESPONSIBILITY ADMINISTRATIV JAVOBGARLIK | <p>одна из форм юридической ответственности граждан и должностных лиц за совершенное ими административное правонарушение, т. е. посягающее на государственный или общественный порядок, права и свободы граждан, собственность, установленный порядок управления, которая менее сурова, чем уголовная, не влечет судимости и применяется, как правило, органами государственного управления.</p> | <p>one of the forms of legal responsibility of citizens and officials for an administrative offense committed by them, i.e., infringing on state or public order, the rights and freedoms of citizens, property, or the established management procedure, which is less severe than criminal, does not entail a criminal record and is usually applied by state administration bodies.</p> |
| VOZOBNOVLYAEMYE PRIRODNYIE RESURSY RENEWABLE NATURAL RESOURCES TABIIY RESURSLARNI QAYTA TIKLASH | <p>природные ресурсы, способные к самовосстановлению в процессе круговорота веществ за сроки, соизмеримые с темпами хозяйственной деятельности человека. Рациональное использование возобновляемых</p> | <p>natural resources that can self-regenerate in the process of substance circulation in a time period commensurate with the pace of human economic activity. Rational use of renewable natural resources should be</p> |

| | | |
|---|--|--|
| | природных ресурсов должно базироваться на принципах сбалансированного расходования и возобновления их, а также предусматривать их расширенное воспроизводство. | based on the principles of balanced expenditure and renewal, as well as provide for their expanded reproduction. |
| GORNOE PRAVO MINING LAW KONCHILIK HUQUQI | комплексная отрасль права, представляющая собой систему взаимосвязанных норм, регулирующих общественные отношения: имущественные, земельные, трудовые, финансовые, административные, природоохранные в сфере горнодобывающей и связанной с нею деятельности. | a complex branch of law, which is a system of interrelated rules governing social relations: property, land, labor, financial, administrative, environmental protection in the field of mining and related activities. |
| GOSUDARSTVENNAYA SISTEMA LITSENZIROVANIYA STATE LICENSING SYSTEM DAVLAT LITSENZIYALASH TIZIMI | единий порядок предоставления лицензий, включающий информационную, научно-аналитическую, экономическую и юридическую подготовку материалов и их оформление. | unified procedure for granting licenses, including information, scientific and analytical, economic and legal preparation of materials and their registration. |
| GOSUDARSTVENNYY KONTROL ZA RATSIONALNYM ISPOLZOVANIEM I OXRANOY NEDR STATE CONTROL OVER RATIONAL USE AND PROTECTION OF MINERAL RESOURCES | система мер, позволяющих обеспечить соблюдение всеми пользователями недр на территории и ее континентального шельфа установленного порядка пользования недрами при их геологическом изучении, добывче полезных ископаемых, | a system of measures to ensure that all subsurface users on the territory of the and its continental shelf comply with the established procedure for the use of subsurface resources in their geological study, |

| | | |
|---|---|---|
| MINERAL RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISH USTIDAN DAVLAT NAZORATI | использовании и захоронении отходов, строительстве и эксплуатации подземных сооружений, не связанных с добычей полезных ископаемых. Контроль осуществляется органами Государственного геологического контроля и органами Государственного горного надзора во взаимодействии с природоохранными и иными контрольными органами. | mining, use and disposal of waste, construction and operation of underground structures not related to mining. Control is carried out by State geological control bodies and state mining supervision bodies in cooperation with environmental protection and other control bodies. |
| GOSUDARSTVENNYY FOND NEDR THE STATE FUND OF THE SUBSOIL ER QA'RI UCHASTKALARINING DAVLAT FONDI | используемые и неиспользуемые части недр и ее континентального шельфа. | used and unused subsurface areas of the and its continental shelf. |
| DOGOVOR CONTRACT SHARTNOMA | соглашение двух или нескольких лиц об установлении, изменении или прекращении гражданских прав и обязанностей. | an agreement between two or more persons to establish, change, or terminate civil rights and obligations. |
| ZEMELNYIY OTVOD LAND ALLOTMENT KON AJRATMASI | - участок земной поверхности, выделенный предприятию (организации) для своих нужд. Для горных предприятий земельные отводы выдаются под здания, сооружения, коммуникации, отвалы, жилые поселки. | - a section of the earth's surface allocated to an enterprise (organization) for its own needs. For mining enterprises, land allotments are issued for buildings, structures, communications, dumps, and residential settlements. |

| | | |
|---|--|--|
| INTERPRETIROVANNAYA GEOLOGICHESKAYA INFORMATSIYA O NEDRAX INTERPRETED GEOLOGICAL INFORMATION ABOUT THE SUBSURFACE ER OSTI SUVLARI HAQIDA IZOHLANGAN GEOLOGIK MA'LUMOTLAR | - результаты обработки первичной геологической информации о недрах, включая геологические отчеты, карты, планы, эскизы | - results of processing primary geological information about the subsurface, including geological reports, maps, plans, and sketches |
| INSTITUT GORNOGO PRAVA INSTITUTE OF MINING LAW KONCHILIK HUQUQI INSTITUTI | совокупность правовых норм, регулирующих самостоятельную часть отношений недропользования. | - a set of legal norms regulating an independent part of the subsoil use relations. |
| ISPOLZOVANIE OTXODOV WASTE MANAGEMENT CHIQINDILARDAN FOYDALANISH | применение отходов для производства товаров (продукции), выполнения работ, оказания услуг или для получения энергии. | use of waste for the production of goods(products), performance of works, provision of services, or for energy production. |
| ISTOCHNIK GORNOGO PRAVA SOURCE OF MINING LAW KONCHILIK HUQUQI MANBAI | форма закрепления или внешнего выражения правовых норм, регулирующих отношения в сфере недропользования. | form of consolidation or external expression of legal norms regulating relations in the field of subsoil use. |
| KOMPETENSIYA COMPETENCE KOMPETENSIYA | — совокупность полномочий, прав и обязанностей государственного органа, должностного лица, органа общественной организации или общественной самодеятельности граждан. (Юридический энциклопедический словарь. — М.: Изд-во | - the totality of powers, rights and obligations of a state body, official, public organization or public initiative of citizens. (Legal encyclopedia-Moscow: publishing house "Soviet encyclopedia", 1984). |

| | | |
|---|---|--|
| | «Советская энциклопедия», 1984). | |
| KONSERVATSIYA GORNOGO PREDPRIYATIYA CONSERVATION OF A MINING ENTERPRISE KONCHILIK KORXONASINI YOPISH | <p>— временное или постоянное прекращение работ, связанных с добычей полезных ископаемых, с обязательным осуществлением мер по обеспечению возможности приведения основных горных выработок, буровых скважин и сооружений в состояние, пригодное для их эксплуатации в будущем, и обеспечивающее безопасность жизни и здоровья населения, охрану окружающей природной среды, зданий и сооружений.</p> | <p>- temporary or permanent termination of operations related to the extraction of minerals, with mandatory implementation of measures to ensure the possibility of bringing the main mine workings, drilling wells and structures in a state suitable for their operation in the future, and ensuring the safety of life and health of the population, protection of the natural environment, buildings and structures.</p> |

VI. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya. Rasmiy nashr.
2. O‘zbekiston Respublikasi «Er osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonun. 2002.
3. Pevzner M.E. Gornoe pravo.- M.: MGGU, 2002.
4. Raximov V.R., SHerfedinov L.Z. Gornoe pravo (Pravovoy poryadok nedropolzovaniya). Tashkent: TGTU, 2007.
5. Raximov V.R., Sayyidqosimov S.S. Konchilik huquqi, o‘quv qo‘llanma (El.v.), TashDTU, 2007 y.
 1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
 2. O‘zbekiston Respublikasining Er kodeksi.
 3. O‘zbekiston Respublikasining «Suv va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonun
 4. Uzbekiston Respublikasi jinoiy kodeksi.
 5. Uzbekiston Respublikasi soliq kodeksi.
 6. Instruksiya o poryadke ischisleniya i uplaty naloga za polzovanie nedrami (novaya redaksiya)/Minfin i GNK Respublikni Uzbekistan №6/2002-10 ot 14 marta 2004 g.
 7. O‘zbekiston Respublikasi «Tabiatni muxofazalash to‘g‘risida»gi qonuni.
 8. O‘zbekiston Respublikasi «Standartlash to‘g‘risida»gi qonuni.
 9. O‘zbekiston Respublikasi «Litsenziyalash to‘g‘risida»gi qonuni.
 10. O‘zbekiston Respublikasi «Metrologiya to‘g‘risida»gi qonuni.
 11. O‘zbekiston Respublikasi «Ekologik ekspertiza to‘g‘risida»gi qonuni.
 12. O‘zbekiston Respublikasi «Davlat kadastr to‘g‘risida»gi qonuni.
 13. <http://mggu.ru> – Московский государственный горный университет.
 14. <http://www.rsl> – Российская государственная библиотека.